

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

Qo'lyozma xuquqida

QURBONBOYEVA DILNOZA SHAROFIDINOVNA

**MILLIY XARAKTERNI IFODALOVCHI
INGLIZ, O'ZBEK VA ARAB TIL BIRLIKLARINING QIYOSIY
MADANIY TAHLILI**

DISSERTATSIYA

Filologiya magistri darajasini
olish uchun yozilgan

Mutaxassislik – 5A 120102
Lingvistika (ingliz tili)

Ish ko'rib chiqildi
va ximoyaga tavsiya etildi.
Kafedra mudiri
Galiyeva M. R.

Ilmiy raxbar
filologiya fanlari nomzodi
dotsent Normurodova N. Z.

“ ” _____ 2015
yil

MUNDARIJA

KIRISH

I BO'LIM. MILLIY XARAKTERNING LINGVOKULTUROLOGIYA DOIRASIDA TADQIQIY AHAMIYATI

1.1. Lingvokulturologiya zamonaviy lingvistik ta'limot sifatida.....	7
1.2. Milliy xarakter va mentalitet tushunchasi.....	11

II BO'LIM. LISON VA MILLIY XARAKTER UYG'UNLIGI

2.1. Milliy xarakterning lisoniy voqelanish jarayoni.....	18
2.2. Tillarda aks etuvchi voqeliklarning milliy madaniy hususiyatlari.....	22

III BO'LIM. MILLIY XARAKTERNI IFODALOVCHI TIL BIRLIKLARINING QIYOSIY MADANIY TAXLILI

3.1. Tillarga xos milliy madaniy hususiyatlar tafovuti.....	32
3.2. Ideal inson obrazining til birliklarida ifodasi.....	38
3.3. Tabiiy geografik muhitning milliy xarakterga ta'siri.....	45
3.4 An'ana va urf odatlarning milliy xarakterni belgilashdagi ahamiyati.....	54

XULOSA.....	69
--------------------	-----------

Adabiyotlar ro'yxati.....	73
---------------------------	----

KIRISH

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng o'z milliy qadriyatlarimiz, boy tariximiz, madaniyatimizga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Lekin shu bilan bir qatorda, zamon bilan hamnafas bo'lish, rivojlangan davlatlarning darajasiga ko'tirilish kabi oily maqsadimizni ham unutganimiz yo'q. Zero, prezidentimiz takidlaganlaridek, "Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir". Respublikamizda o'ziga xos izchillik bilan olib borilayotgan "Ta'lim to'g'risidagi Qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da har bir shaxsninig o'ziga xos ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog'liq bo'lgan tashabbuskorlik jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu jarayon esa ma'lum qadriyatlar asosida shakllanuvchi shaxs kamolotining ta'minlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar zamirida eng avvalo shaxsning ijtimoiy taraqqiyoti, o'zligini anglash va o'z mentalitetiga xos ezgu orzularni amalga oshirishga intilish masalalari yotadi.

Bu masalaning yechimi esa yoshlar ongida milliy qadriyatlarga asoslangan fidoiylilik, vatanparvarlik, bunyodkorlik va o'zbek milliy xarakteriga mos bag'rikenglik tushunchalarini singdirish, boy tarixiy tajribalarimizni amalda qo'llash orqali amalga oshiriladi. Prezidentimiz takidlaganlaridek- "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q". Bizning maqsadimiz esa aksincha ozod va obod vatan, erkin va farovon turmush barpo etmoqdir. Bu yo'lda, ya'ni obod vatan bunyodkorlari bo'lmish yoshlarni ma'nan yetuk, aqlan barkamol qilib tarbiyalashda avvalo ma'naviyat va madaniyatning roli benihoya kattadir. Bu bebaxo xazinalarni anglash uchun esa yuksak tafakkur va katta bilim asosidagi tajribalar talab etiladi. Demakki, eng avvalo tariximizni, madaniyatimizni va o'zligimizni anglamog'imiz zarur. Aynan mana shu maqsaddan kelib chiqqan holda ushbu ilmiy tadqiqot ishi yuzaga keldi.

Prezidentimiz aytib o'tganlaridek – “Ma'naviyatni anglash, tushunish uchun avvalo insonni anglash, tushunish kerak”. Insonni tushunish uchun esa uning xarakterini o'rganmoq lozim. Insonning xarakterida jam bo'lgan hislatlar, uni o'rab turgan atrof muhit va madaniyat ta'sirida paydo bo'ladi. Demakki, madaniy muhit xarakterni shakllantiruvchi asosiy omildir. Bu omil asosida yana bir keng ma'nodagi tushuncha “milliy xarakter” tushunchasi o'rtaga chiqadi. Bu keng qamrovli tushuncha endi o'sha shaxs yashayotgan ijtomoiy qatlamning umumiy hususiyat va hislatlarini qamrab oladi. Biz tilshunoslar esa chet tilini o'rganish jarayonida, o'sha millat milliy xarakterini o'rganishga ham ehtiyoj sezamiz. Qo'lingizdagi ilmiy tadqiqot ishining paydo bo'lish zaruriyati ham mana shunda. Bilamizki tilning inson hayotidagi o'rni beqiyos. Uning yordamida biz bir birimizni tushunamiz, voqelikni tirik dunyoni o'zlashtiramiz, o'zaro fikrlashish qobiliyatiga ega bo'lamiz. Tilda barcha axborotlar jamlanadi va saqlanadi. Xalqning milliy xakteri ham o'sha millatning tilida mujassam bo'ladi. Demakki tilni o'rganish orqali biz o'z maqsadimizga ya'ni milliy xarakterni ochib berishga xarakat qilamiz. Shunday ekan, ilmiy tadqiqot ishimizning tadqiqiy obekti – o'zida milliy xarakter hislatlarini, milliy kolorit va mental hususiyatlarni aks ettirgan til birliklari, yani sintaktik birliklar – so'zlar, iboralar, matn va boshqalardir. Biz milliy xarakterni keng ma'noda taxlil qilish uchun bazi ingliz, o'zbek va arab til birliklariga murojat qildik va bunda qiyoslash metodidan foydalandik. Ishning yangiligi shundan iboratki, unda madaniyatlari bir biridan farq qiluvchi bu uch milllatlar milliy xarakterining umumiy hususiyatlari til birliklari yordamida o'rganildi va qisman ochib berildi. Milliy xarakterni shakllantirishda diniy omil yetakchi o'rin egallagani uchun ham diniy qarashlari bir xil (o'zbek , arab) va diniy qarashlari farqli (ingliz) madaniyat vakillarining til birliklari taxlil qilindi.

Ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi hozirgi kunda tilshunoslikda rivojlanib borayotgan, inson tafakkuri bilan bog'langan fan sohalari doirasida tadqiqiy axamiyatga ega muammoning turli yo'nalishlarda hal etilishi bilan bog'liq. Insonning mental hususiyatlari va uni aks ettiruvchi lison o'rtasidagi bog'liqlik tilshunoslikda haligacha tadqiq etilayotgan jarayondir. Shu jihatdan olib qaraganda tilning milliy xarakter bilan uyg'unligini tadqiq etish va uni qiyosiy metodda analiz qilish

tilshunoslik uchun dolzarb bo'lgan masaladir. Bu masala tilshunoslikda o'rganilishda davom etayotganligi bilan xarakterlidir. Bu mavzuda tadqiqot ishlari olib borgan olimlar sifatida esa – Y. Sorokin, V. Teliya, V. A. Maslova, E. Vereshagin, Vorobyov, A. Vejbitskaya, V. Kostomarov, D. Olford, D. Xayms kabilarni sanab o'tish mumkin.

Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi milliy xarakterni madaniyatalari turlicha uch til, ya'ni ingliz, o'zbek va arab tillari ko'zgusida namoyon ettirish va ularning o'xshashliklari, tafovutlarini qiyoslash metodi yordamida taxlil qilish. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda bir qator vazifalar belgilab olindi, yani:

- milliy xarakter va uning tildagi o'rnini atroflicha o'rganish
- milliy xarakter hususiyatlari aks etgan ingliz, o'zbek va arab til birliklarini leksik, grammatik, stilistik va semantik taxlil qilish, o'z navbatida ularni bir biri bilan qiyoslash.
- tilning ifoda qatlmida milliylik va mental hususiyatlar aks etishiga sabab bo'luvchi omillarni aniqlash va ular asosida til birliklarini taxlil qilish
- umummilliy xarakter hislatlariga ega til birliklarini aniqlab topish va ularning turli tillarda tasviriy uslublari xilma-xilligini qiyoslash

Ilmiy tadqiqot ishining o'rganilish obekti bu o'zida milliy xarakter hislatlarini, milliy kolorit va mental hususiyatlarni aks ettirgan til birliklari, yani sintaktik birliklar – so'zlar, iboralar, matn va boshqalardir.

Ilmiy tadqiqot ishida tilshunoslikdagi asosiy metodlardan biri qiyoslash metodidan foydalanildi. Shu metod asosida til birliklari grammatik, leksik, semantik va stilistik analiz qilinib qiyoslandi.

Ilmiy tadqiqot ishining yangiligi shundan iboratki, unda madaniyatlari bir biridan farq qiluvchi ingliz, o'zbek va arab millatlari milliy xarakterining umumiy hususiyatlari til birliklari yordamida o'rganildi va qisman ochib berildi.

Ilmiy tadqiqot ishining ilmiy va amaliy ahamiyati – og'zaki va yozma nutqda milliy madaniy tushunmovchiliklarni bartaraf etish, boy madaniy merosni o'rganish, tillarda aks etgan milliy xarakterni o'rganish orqali bevosita o'sha millat kishilari madaniyati bilan yaqindan tanishish.

Ilmiy tadqiqot ishi kirish qismi, uch bo'lim va xulosadan iborat.

Ilmiy tadqiqot ishining birinchi bo'limida milliy xarakterning qanday tushuncha ekanligi va tilshunoslikda bu muammo bilan shug'ullanuvchi bo'lim, ya'ni til va madaniyat o'rtasidagi aloqalarni o'rganuvchi fan tizimi – lingvokulturologiya haqida ma'lumot berib o'tilgan. Unda bu sohada olib borilgan ishlar, izlanishlar va ular bilan bog'liq tilshunoslar xulosalari bayon etiladi.

Ikkinchi bo'lim esa bevosita milliy xarakterning til bilan aloqasi, uning tilda qanday va qay holatlarda aks etishi kabi muammolarni qamrab oladi. Shuningdek unda zamonaviy tilshunoslikda keng qo'llanilayotgan lison shaxsi tushunchasi va uning milliy xarakterni ochib berishdagi ahamiyati bilan ham tanishishingiz mumkin. Voqeliklarni o'rganishda avvalo uning milliy madaniy hususiyatlari inobatga olinadi va mana shu hususiyatlarning biz taxlil qilayotgan tillarga hos jihatlari ham ushbu bo'limda ko'rib chiqilgan.

Ilmiy tadqiqot ishining uchinchi bo'limi ko'proq analiz va taxlillarga asoslangan bo'lib, bu bo'limda milliy xarakterni ifodalovchi til birliklari, ularni keltirib chiqaruvchi omillar tasnifi asosida qiyoslanadi va madaniy taxlillar, tariflar beriladi. Bunda avvalo milliy madaniy hususiyatlarning ingliz, o'zbek va arab tillariga hos ko'zga ko'ringan tafovutlari aniqlashtirib olingan. So'ngra bu uch til uchun hos umumiy hislatlarning ishlatilishdagi farqlari ko'rsatilgan. Bo'lim so'ngida milliy xarakterni shakllantiruvchi omillar ya'ni geografik muhit, a'nana, urf odatlar va ular asosida kelib chiqqan til birliklari taxlil qilinadi.

I- BO'LIM: MILLIY XARAKTERNING LINGVOKULTUROLOGIYA DOIRASIDA TADQIQIY AHAMIYATI

1.1. Lingvokulturologiya zamonaviy lingvistik ta'limot sifatida

So'nggi yillarda lingvokulturologiya lingvistikadagi zamonaviy konsepsiyalar asosida rivoj topdi va o'z tadqiqot doirasiga ega bo'lgan mustaqil fan sifatida shakllandi. O'z nomidan ma'lumki bu fanning asosiy maqsadi xalq madaniyati va mental xususiyatlarini uning tili yordamida tadbiq etishdir. Lingvistikaning yangi tarmoqlari shakllanishida va bu sohadagi yo'nalishlarning zamonaviy ko'rinishga ega bo'lishida asosan uchta nazariya muhim ahamiyat kasb etdai. Ya'ni bular: qiyosiy-tarixiy nazariya, tizimli-tarmoqli nazariya va antroposentrik nazariya asosida shakllangan metodlar. Tilni tadqiq etishda qiyosiy –tarixiy nazariya eng birinchi yaratilgan nazariyalardan biri hisoblanadi va yana shuni ta'kidlash lozimki butun XIX asr lingvistikasi aynan mana shu metod asosida shakllangan. Tizimli-tarmoqli nazariyaning paydo bo'lganiga esa ancha vaqt bo'lgan bo'lsada bu metod hali ham lingvistikada keng qo'llanilmoqda chunki uning tadqiqot doirasi narsa, buyum va nomlarni o'rganishga qaratilgan, ya'ni uning birlamchi obekti bu so'zdir. Shu sabali ham bu metodni yana uzoq yillar davomida izchil amaliyotda qo'llaydilar desak yanglishmagan bo'lamiz. Antroposentrik nazariya yangi, zamonaviy ta'limot hisoblanib tadqiqotchilarni o'z serqirraligi bilan qiziqtirib kelmoqda. Chunki bu yo'nalishda izlanish olib boruvchilar tilshunoslikani boshqa bir qator fanlar ya'ni – falsafa, matematika, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, etnografiya, geografiya va yana boshqalar bilan umumiy aloqadorlikda o'rganadilar. Uning tadqiqot doirasi keng va serqirra bo'lib asosiy e'tibor subektni ongda qanday idrok etilishiga va insonning lisoniy tafakkurini o'rganishga qaratilgan. Soddaroq qilib aytganda, til inson tafakkuri mahsulidir, tilshunos I.A. Boduena de Kurtene aytganidek, “til individuallik xususiyatiga ega bo'lib u faqat individning ongida,

qalbida va ruhiyatida va ular tashkil qilgan jamiyatning tilida yashaydi”. Antroposentrik nazariyaning yanada kengayishi tilshunoslikda yangi fan sohaları - kognitiv lingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, lingvopragmatika kabilarning rivojlanishiga zamin yaratdi. Biz milliy xarakterning tillarda aks etishini lingvomadaniyatshunoslik doirasida taxlil qilishimiz ham aynan mana shu metod nazariyalariga tayanadi. Shu sababli ham, avvalo lingvomadaniyatshunoslikning fan sifatida shakllanishi va u tilshunoslikning qanday dolzarb muammolarini qamrab olganini ko’rib chiqamiz.

Har bir inson o’z milliy urf odatlari, tili, tarixiga ega bo’lgan ma’lum bir madaniyat vakilidir. E. Sepir shunday yozadi: “Til – madaniyatni ilmiy o’rganishda o’z ahamiyatliligiga ko’ra eng birinchi o’rinda turuvchi yo’l ko’rsatuvchidir”. Demakki madaniyatning turli rangli qirralarini til prizmasidagina ko’ra olishimiz mumkin. Bunda lingvomadaniyatshunoslikning ahamiyati beqiyos. Aynan shu tufayli u lingvistik tadqiqotlarning muhim tarmog’iga aylandi. Bu fan tillarda aks etgan milliy madaniy hususiyatlarni, qisqacha aytganda “tildagi ruhiyatni” o’rganadi va muloqot jarayonida yuzaga keluvchi madaniy tafovutlarni oldini oladi. Lingvomadaniyatshunoslik falsafa, milliy xarakter va mentalitet tushunchalari bilan chambarchas bog’langan va bu sohada olib borilayotgan izlanishlar tilshunoslikdagi “ichki” muhitdan “tashqi” muhitni ajratib chiqargan holda, tilni inson tafakkuri, mental hususiyatlari va ruhiy-amaliy dunyoqarashi bilan uzviy bog’liqligini ko’rsatdi. F.de Sossyur shunday degan edi: “Bizning til haqidagi tasavvurimiz maqsadlari u bilan bog’liq tilshunoslik doirasida yuritiladigan sistemalarni taxlil qilishgina emas, balki tilning asl maqsadi bo’lgan muloqot jarayonini o’rganishga kirishishdan iboratdir”. Tilni o’rganish, unda muloqot ko’nikmalarini shakllantirishni madaniyatdan holi amalga oshirib bo’lmaydi. Chunki to’g’ri muloqotga kirishish avvalo milliy madaniy savodxonlikni ham taqozo etadi. Mamlakatshunoslik va etnolingvistika fanlaridan farqli o’laroq lingvomadaniyatshunoslik tillarda aks etgan madaniy qadriyatlarning qiyosiy analizi bilan shug’ullandi. “Til va inson” konsepsiyasi o’z navbatida inson haqidagi barcha fan sohalarini qamrab oladi. Va yana shuni takidlash lozimki, til - milliy madaniyat

va qadriyatlar mavjudligining sababchisidir. E. Sepir shunday yozgan edi: “madaniyatga malum jamiyatning nima qilayotgani va o’ylayotgani deb tarif berish mumkin, til esa ularning qanday o’ylayotganligidir”. U holda til ifoda etilgan ichki madaniyatning ko’rinishi ekanligi ma’lum bo’ladi. Til va madaniyat o’rtasidagi determinizm, yani o’zaro bir birini taqozo etish haqiqiy “o’zarochilik”dir. Aynan shu sababli ham turli turli mamlakat olimlari tomonidan til va madaniyat munosabati masalasi turli yo’nalishlarda o’rganilayotgani tabiiy holdir. Bu muammo bilan shug’ullanayotganlar safiga tilshunoslar – Y. Sorokin, V. Teliya, V. A. Maslova, E. Vereshagin, A. Vejbitskaya, V. Kostomarov, D. Olford, D. Xayms, faylasuflar – G. Brutyan, E. Markaryan, psixologlar – L. Vigotskiy, A. Leontev, V. Petrenko, P. Gulviste kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek bu masala nutq madaniyatiga oid tadqiqotlarda ham muhim o’rin egallaydi, va bu sohada Y. Skvorsov, E. Begmatov, A. Mamatov, B. O’rinboyev kabilarning yutuqlari alohida ahamiyatga ega. Keyingi yillarda tilshunoslikda lingvokulturologiyaning alohida tadqiqot yo’nalishi sifatida shakl topishi esa bevosita V. Krasnix, V. Maslova, D. Gudkov, Ter-Minasova, D. Ashurova kabilarning ilmiy mehnatlari bilan bog’liqdir.

Ilmiy izlanishlar natijasida shu narsa ma’lum bo’ldiki, lison va madaniyat munosabati masalasi murakkab, juda qiyin hamda ko’p tomomlama muhokamani talab qiladigan masaladir. Ular tadqiqiga juda extiyotkorlik bilan yondashish zarur bo’ladi, aks holda bu ikki turdagi semantik tizimni yagona bir qolipga tushirish xavfi ham yo’q emas. Shuning bilan birgalikda bu ikki tizimning o’zaro o’xshash, umumiylik tomonlari ham mavjudligini unutmaslik lozim. V. N. Teliya bunday umumiylikni quyidagilarda ko’radi: madaniyat, xuddi lison kabi, inson dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shaklidir va bu ikkisi doimo o’zaro munosabatda, muloqatda bo’ladi. Shuningdek til va madaniyatning subekti –bu doimo individ yoki ijtimoiy guruh – jamoa, shaxs yoki jamiyatdir. Me’yoriylik (norma) til va madaniyat uchun doimo umumiy xususiyatdir. Tarixiylik esa ular uchun muhim bo’lgan xususiyatdir. Til va madaniyatga “dinamika – statika” qarama qarshiligi bir xilda xosdir (Teliya 1996: 225-226). Darxaqiqat olima aytganidek til va madaniyatni yaqinlashtiradigan umumiy xususiyatlar anchagina va shu bilan birga ularni

farqlovchi xususiyatlar ham yetarlidir. Bu farqlovchi xususiyatlar birinchi navbatda til va madaniyatning tizimiylik ko'rsatkichlarida namoyon bo'ladi: madaniyat ham ham belgilar sistemasidir. Ammo ushbu sistema, til tizimidan farqli o'laroq, o'z-o'zidan tartiblashish, tizimlashish xususiyatiga ega emas. Shu jumladan biz tadqiq etayotgan, madaniyatning bir bo'lagi bo'lgan "milliy xarakter" tushunchasi hambundan mustasno emas. Biz uni tizim sifatida o'rgana olmaymiz. Umuman, til va madaniyat tizimlari tarkibidagi belgilar strukturaviy tuzilishi va bajaradigan vazifalariga ko'ra keskin farq qilishlariga nisbatan tamoman boshqa sistemalar sifatida e'tirof etiladi. Bundan tashqari, til barcha uchun bir xil vazifa bajaruvchi "jamoaviy adresatli" xodisa bo'lsa, madaniyatda esa undan farqli o'laroq ko'proq elitarlik namoyon bo'ladi. Demak til va madaniyat o'rtasidagi munosabat izomorflikdan (aynanlikdan) ko'ra ko'proq homomorflik, yani strukturaviy o'xshashlikdan iborat degan xulosa haqiqatdan uzoq emas. Bundan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning strukturaviy va mazmuniy sathlarida ularga hos madaniy elementlar ham albatta aks etadi.

1.2. Milliy xarakter va mentalitet tushunchasi

Til tirik, u doim xarakatda va rivojlanishtadir. U insoniyatdan holi mavjud bo'la olmaydi, va o'z navbatida insoniyat ham uning yordamisiz taraqqiy eta olmaydi. Chunki til va inson tushunchalari bir biridan ajratib bo'lmaydigan voqe'liklardir. Tilda bizni o'rab turga atrof muhit o'z ifodasini topadi, shuningdek u biz yaratgan madaniyatni ham o'zida aks ettiradi, saqlaydi va kelajak avlodlarga qoldiradi. Shuning uchun tilni madaniyat tashuvchisi desak ham bo'ladi. U shunday kuchga egaki, go'yo insoniyat uning oldida ixtiyorsiz qulga aylanadi. Chunki biz dunyoga kelar ekanmiz o'z ona tilimizning ta'siri ostida borliqni idrok etamiz, tilimiz asragan madaniyatni qabul qilamiz va unga ergashamiz. E.M. Vereshagin aytganidek- “Odamzot rus yoki nemis yoxud yapon bo'lib tug'ilmaydi balki unga mos ijtimoiy gurux doirasida o'sha millat kishisiga aylanadi”(1980: 35). Bir hisobda biz o'z tilimiz va u ichiga olgan madaniyatning maxsulimiz. Til o'z so'zlashuvchilarini aks ettiradi, shu bilan birga ular tashkil etgan jamiyatning milliy xarakteri va mentaliteti ham unda o'z ifodasini topadi. “Mentalitet” tushunchasi tilshunoslik paradigmasiga kiritilganiga hali ko'p bo'lmagan bo'lsada, hozirda juda keng doirada qo'llanilmoqda. Tor ma'noda mentalitet “fikrlash doirasi, dunyoqarash” mazmunida foydalanilsa, keng ma'noda esa “xalqning axloqi, tarbiyasi va tasavvuri tushuniladi”. Tilshunos olimlardan biri Kotenka “mentalitet” va “dunyo tasviri” tushunchalari orasiga tenglik belgisini qo'yadi va uni “intellektual, ma'naviy va irodaviy xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirganona tili doirasida olamni anglash”, deb aytib o'tadi (1997:14). Mentalitet tushunchasini tilshunos V. fon Gumboldt qarashlarida ham ko'rishimiz mumkin. Uning fikricha, mentalitet – bu “xalqning nafaqat tilida, balki adabiyoti, dini va boshqa ma'naviy jabhalarida ham o'z aksini topgan xarakteridir” (1984: 348). Shunday ekan, yuqorida aytib o'tilganidek, bu “milliy xarakter” xalqning dini, siyosati, urf – odatlari, ijtimoiy qatlami, turmush tarzi, tarixi va hatto geografik o'rni bilan ham chambarchas bog'liq.

Mentalitet- (lot. aql, tafakkur) individ yoki ijtimoiy guruhning, millatning dunyoni ma'lum bir tarzda tushunish va harakat qilishga tayyorligi, moyilligi.

Jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur tarzi, ma'naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati, jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti, o'ziga xos an'analari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, diniy e'tiqod va irimlarini ham qamrab oladi.

Jamiyat, millat, elat, yoki shaxsning mentalitetini o'rganish va aniqlash nihoyatda katta ehtiyotkorlikni hamda jiddiy yondashuvni talab qiladi. Mentalitetni faqat millatning soni, tarixining boy yoki qashshoqligi, millatning qaram yoki tobe bo'lishi yoki kapitalistik farmatsiyaga mansub emasligi bilangina aniqlashga urinish, jiddiy xatolarga olib kelishi mumkin. Uni aniqlash uchun juda ko'p omillar e'tiborga olinishi va boshqa millatlardan farqlay olish, ayni paytda qiyoslash, ushbu millatda yashab o'tgan shaxslar, turli shart-sharoitlar, tarixiy davrlar, millat ruhiyati va boshqa qator jihatlarni o'rganish lozim. Yuqorida mentalitet so'zi lotinchadan tarjima qilinganda aql, fahm, zehn, idrok ma'nolarini anglatishini ta'kidlab o'tgan edik. Har bir millatning aqli, idroki, fahm-farosati uning yashab turgan shart-sharoitlari, tarixi, qanday xalqlar qurshovida istiqomat qilishi, ijtimoiy faolligi va boshqa omillar bilan bog'liq.

Milliy xarakter tushunchasi o'rganish obekti sifatida murakkab, ammo o'rganish mumkun bo'lgan ijtimoiy tarixiy hodisadir. U millat hayotidagi tarixiy kategoriya bo'lib, uni o'rganish, tushuntirib berish uchun bevosita o'sha millat tilini, tarixini, hayotini, madaniyatini ham yaxshi bilish zarur. Har bir xalq butun xususiyatlari bilan olingandagina va betakror bo'lib ko'rinishi mumkin..., uning har bir etnik xususiyati aloxida olib ko'rilsa, mutloq noyob xususiyat bo'la olmaydi. Milliy xarakter muammosini o'rganishdagi murakkablik va chalkashliklar, deb ko'rsatadi I.S.Kon, ko'pincha dialektikadagi umumiylik va hususiylik, mushtaraklik va aloxidalikni tushunmaslik natijasida vujudga keladi. Uning to'g'ri ta'kidlashicha, milliy xarakterning u yoki bu xususiyatini ko'rsatganda, albatta u nisbatan olib o'rganilishi kerak. "Rus milliy xarakteriga bag'ishlangan ishlarda, - deb yozadi I.Kon, - ko'pincha ularda emotsional vazminlik, deb ataladigan xislat ko'rsatiladi. Agar italyanlar bilan taqqoslanganda to'g'ri, qo'shilaman. Lekin faqat finlar yoki

estonlar bilan taqqoslaganda emas”. Milliy xarakter va etnik psixologiyani o‘rganishning muxoliflari, milliy xarakterdagi keltirilgan xislatlarni qaysi biri birorta xalqda yoki millatda mavjud emas? deb savol qo‘yishadi. Milliy xarakterni o‘rganishda tadqiqotchilar uchraydigan qiyinchilik ham mana shunda. Darhaqiqat, xarakterning qaysi bir xususiyatini olib ko‘rmaylik, albatta u barcha xalqlar va millatlarda ham mavjud ekanligini ko‘ramiz. Ho‘sh, millat o‘zi nima?

Millat-arabcha (xalq) kishilarning yagona tilda so‘zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatiga ega bo‘lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi. Millatning tili esa uning madaniyatini aks ettiruvchi ko‘zgu hisoblanadi. Tilshunos Ter-Minasova ta’kidlaganidek, tilni va insoniyatni bir biridan ajratib bo‘lmaydi. Bularning ikkisi ham bir birisiz mavjud bo‘la olmaydigan tushunchalardir. Demakki insoniyatni ham, u yaratgan madaniyatni ham tildan xoli ravishda o‘rgana olmas ekanmiz. Til bizni o‘rab turgan olamni o‘zida aks ettiradi, biz yaratayotgan madaniyatni ko‘rsatib beradi va uni ajdodardan avlodlarga o‘tishini ta’minlayi. Demak u insoniyat tafakkuri, mentaliteti, dunyoqarashi, milliy xarakterini o‘zida mujassam etgan madaniyat yaratuvchisi ekan.

Umumiy turmush tarziga ega, bir tilda so‘zlashuvchi odamlar majmuini xalq deb, odamlarning o‘zini insonlar sifatida anglab, muayyan maqsadlar atrofida ongli uyushgan holatini esa millat deb ataladi. Millat so‘zining mohiyatida e’tiqod yo‘lida birlashganlar maslagi, g‘oyasi yakdil fidoiylar degan mazmun mujassamdir.

Xalq millatga nisbatan tarqoq tushuncha bo‘lib, ko‘proq o‘zini etnik jihatdan himoya qilishga intiladi va shu ko‘lamlarda uning faollik darajasi cheklanadi. Millatga aylangan xalq esa o‘z-o‘zini siyosiy, ma’naviy, axloqiy, intellektual, mafkuraviy jihatlardan himoya qiladi. Millatga aylangan xalq tarkibidagi insonlar ozod va shijoatkor, doimiy o‘sish, o‘zgarishlar ishtirokida yashaydi.

Milliy xarakterni tadqiq etishga XIX asrda e’tibor kuchaydi. Bu borada qator izlanishlar olib borgan etnopsixolog olimlar o‘z asarlarida milliy xarakterning real voqelik sifatida mavjudligini e’tirof etgan. Faylasuf E. Fridrix Angliya tarixini o‘rganar ekan, franuz va nemislarda bo‘lmagan o‘ziga xos mustaqillik, o‘ziga

ishonch xususiyatlari rivojlanganini ko'rsatib beradi. –Ingliz milliy xarakteri nemislarnikidan ham, shuningdek fransuzlarnikidan ham keskin farqlanadi,- deb yozgan edi u. Amo buni inkor etuvchilar milliy xarakter mavjud emas degan fikrni olg'a suradilar va bir biriga qardosh xalqlar orasida tafovut bo'lmaydi, ularning milliy xarakterida farqni ko'rsatib beringchi, deyishadi. Diqqat qilib o'rganish va tekshirish jarayonida hamma xalqlarning milliy xarakterida bir biridan farq qiluvchi hususiyatlar borligini payqab olish mumkin. Milliy xarakterdagi bu farqlarni xatto kundalik hayotimizda ham ko'p uchratamiz.

Xalqlarning turlicha xarakter hislatlariga ega bo'lishligi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy tajribasi, tarixiy taraqqiyoti va tabiiy yashash sharoitlari bilan belgilanadi. Bunda ijtimoiy munosabatlr milliy xarakter rivojlanishida yetakchi o'rinni egallaydi. Xar bir tarixiy davr, shu davrdagi ijtimoiy taraqqiyot qonunlari asosida miliy mafkura manfaatlariga mos bo'lib tushadigan o'z milliy xarakter idealini yaratadi. Shu davrdagi xarakter tipi kishilarning yashash tarzini aks ettiradi.

Xalqning butun tarixi davomida orttirgan har bir xarakter hislatlarining vujudga kelishi kishilar ruhiyatiga atrofdagi voqeliklarning uzoq vaqt davomida tasir etib turishi bilan bog'liqdir. Milliy xarakterga qanday ruhiy xislat va sifatlarni kiritish mumkin? Shuni takidlash kerakki “milliy xarakter” tushunchasi haqida hali ham umumiy bo'lgan bir hil qarash mavjud bo'lmasada, lekin unga kiruvchi xislatlar to'g'risida umumiy bo'lgan fikrlar mavjud. Ko'p tadqiqotchilar milliy xarakterga, mexnatga munosabat (mexnatsevarlik), vatanparvarlik, erksevarlik, jangovorlik, dovyuraklik kabi xislatlarni kiritishadi. Bizning fikrimizcha esa, yuqoridagi xislat va sifatlarni bilan bir qatorda milliy xarakter tarkibiga yana millatning aql tuzilishi, boshqa xalqlarga bo'lgan munosabati va shu millat vakillarining o'zaro munosabatlarini belgilovchi xususiyatlar ham kiradi. Bu esa bevosita shu xalqning tilida, boy madaniy merosida o'z aksini topadi.

Milliy xarakterni tadqiq etishdagi asosiy qiyinchilik shundaki, bir xalqqa yoki millatga hos bo'lgan hislatlar boshqa millat vakillarida ham uchrashi mumkin. Darxaqiqat, xarakternig qaysi bir hususiyatini olib ko'rmaylik, albatta u barcha xalqlar va millatlarda ham mavjud ekanligini ko'ramiz. Masalan, erksevarlik,

dovyuraklik, mexnatsevarlik, vatanparvarlik kabi hislatlar xamma xalqlarga hos bo'lgan xususiyat bo'lgani xolda, bu hislatlar o'zining namoyon bo'lishi, tuzilishi jihatdan barcha xalqlarda bir hil kechmaydi. Zero, xarakter hislatlarini keltirib chiqaruvchi yashash tarzi, tarixiy taraqqiyot va faoliyat sharoitlari aynan bir hil bo'lmaganligi sababli, yuqoridagi xarakter hislatlarining namoyon bo'lishi ham ularda aynan bir hil bo'lolmaydi.

Masalan, Kavkazdagi tog'li xalqlarni o'rgangan tadqiqotchilar ularda jangovorlik, mag'rurlik kabi xarakter hislatlari kuchli ekanini etirof etishadi. Ulardagi bu xarakter, -deb yozadi T. Ch.Chomaev, -tog'li xalqlarning tashvishli va xavf xatarga to'la xayotning inikosi bo'lib, unga moslashish zaruriyati natijasidir. Demakki miliy xarakterni shakllanishida, avvalo yashash sharoiti yani relefning ta'siri kuchli ekan. Bunga yana misol sifatida Gollandiya xalqlarini olaylik. Ularning yashash sharoiti doimiy mexnatni va yerga ishlov berishni talab qiladi, shu sababli ularning milly xarakterida tirishqoqlik va sabot bilan mexnat qilish hislatlari birinchi o'rinda turadi. Gollandlar o'z farzandlarini ham shu ruxda tarbiyalashga alohida e'tibor qaratar ekanlar va bolalariga kaftlaridagi egri bugri chiziqlarni ko'rsatib, M-man-odam , W- work-mexnat deb yoshligidanoq uqtirar ekanlar. Qarangki bizning o'zbek xalqimiz ham mexnatsevarlik hislatini juda ulug'laydi. Chunki qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz dehqonchilik, chorvachilik, mirishkorlik bilan shug'ullanib kelganlar va bu mexnatkashlik bizning qonimizda ham saqlanib qolgan xarakterimizning bir qismidir. Yana shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, har bir xalqning mexnatsevarligi turli ko'rinishda kechadi. Masalan o'zbeklar ham, qozoqlar ham, ikkalasi mexnatkash xalq. Lekin ularning mexnatsevarligi faoliyatining turli sohalarida turlicha namoyon bo'ladi. O'zbeklarda u dehqonchilik, bog'dorchilik bilan shug'ullanish jarayonida namoyon bo'lsa, qozoqlarda esa chorvachilik bilan bog'liq mexnatlarda ko'rinadi. Bir necha asrlar davomida o'zbeklar dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan, shu boisdan ularda mahsulot ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lgan yerga nisbatan extiyotkor, tejamkorona munosabatda bo'lish hususiyatlari vujudga kelgan. Shu boisdan o'zbek nutqida ona yer, ona tuproq, ona zamin kabi yerni ulig'lovchi iboralarga ko'plab duch kelimiz. Bu o'zbek milliy

xarakterining lisonda aks etgan bir namunasi xolos. Agar biz milliy xarakter va mentalitetni tildagi aksini chuqurroq taxlil qilib o'rgansak, bundanda ko'proq namunalarga duch kelamiz.

Yer yuzidagi har bir xalq o'ziga xos milliy xarakterni namoyon etadi. Ammo, bu milliy xarakterni mutloqlashtirib yuborish kerak degani emas. Boshqa xalqlarda va millatlarda uchramaydigan, faqat bir xalqqagina hos bo'lgan sof milliy xarakter umuman tabiatda uchramaydi. Milliy xarakterga oddiy shaxslar xarakterining yig'indisi deb qarash ham noto'g'ri. U ommaviy fenomen sifatida, individual xarakterlarning umumiy bo'lgan hislatlari ijtimoiy jihatidan qayta ishlanib, yangi, maxsus sifatga aylangan vaqtda tarkib topib namoyon bo'ladi. Masalan xor ovozi hech bir xor qatnashchisining ovozigina o'xshamagandek, milliy xarakter ham birorta millat vakilining xarakteriga o'xshamaydi, yoki millat xakteri hech bir millat vakilida tugaligicha aks etmaydi. Milliy xarakter o'zgarmas, turg'un narsa ham emas. U tarix mahsulidir. Shuning uchun ham uni vujudga keltirgan tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi bilan u ham malum darajada o'zgaradi, xatto bir ijtimoiy tizimning o'zida ham u ayrim xislatlarni yo'qotib, yangi hislatlarni paydo qilib turishi mumkin.

Shuningdek har bir xalq boshqa xalq bilan yaqin ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarga kirishganda undan o'zida yo'q narsalarni oladi va o'zidan ham ularda bo'lmagan narsalarni beradi. Lekin boshqa xalqlardan olingan bu xarakter hislatlari, millat vakillari tomonidan o'zlashtirilganda, aynan, o'zgarishsiz ko'chira olmay, o'ziga xos milliy ifodani oladi. Ma'lumki, har bir inson shaxs sifatida shakllanar ekan, faqat o'zi yashab turgan davrdagi ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida bo'lib qolmasdan, shuningdek, tarixiy tajribalar, ajdodlar tomonidan yaratilgan, to'plangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy meroslar, milliy qadriyatlar ta'siri ostida ham shakllanadi. Urf odatlar va rasm-rusumlar-kishilar turmushiga singib ketgan, doim takrorlanib turuvchi hatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor, qoidalar va ko'nikmalar. Urf-odatlar va rasm-rusumlar har bir millatning o'ziga xos tizimini tashkil qiladi. Millat tomonidan

turmush tarzining zaruriy sharti deb qabul qilingan. Urf-odat va rasm-rusumlarga befarq kishi o'zini o'z millatidan ajratib qo'yadi.

Bunda ayniqsa, xar bir xalqqa hos bo'lgan milliy urf-odat va an'analarning roli kattadir. Shunday ekan lingvokulturologiyaning asosiy o'rganish obektlaridan bo'lgan milliy xarakterning tildagi ifodasini ayna o'sha urf –odat , an'ana, udum va turli marosimlarni atroflicha o'rganish, ularni vujudga kelishi, namoyon bo'lishi, saqlanishi va o'zgaruvchanligi kabi qonuniyatlarini ochib berish va taxlil qilish yordamidagina chuqurroq va batafsil o'rganish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki lingvokulturologiya til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni, o'zaro aloqalarni tadqiq etadi. Uning tadqiqot doirasidagi til barcha madaniyatlar uchun xizmat qiladi, madaniy- manaviy boyliklar, axborot manbalarini saqlaydi, ularni avloddan avlodga yetkazish hamda stereotip va etalon-namunalarni shakllantirishda bevosita ishtirok etadi. Tadqiqot doiramizdagi milliy xarakter ham tilning ana shu "xizmati" tufayli ro'yobga chiqadi va ma'lum bir lisoniy ko'rinishlarga kiradi. Biz madaniy xususiyatlarni, voqeliklarni, xarakterlarni tilning yordamisiz taxlil qila olmaymiz. Chunki inson va voqelik munosabatida til o'ziga hos bog'lovchi , vositachilik rolini o'ynaydi. Til o'zida voqelikni aks ettiradi, madaniyat esa ushbu voqelikning ajralmas qismidir. Voqelikning o'zini ham milliy deb atash mumkin va bu milliylik lisonida dunyoni o'ziga hos "ko'rish", uni idrok etish natijasida o'z aksini topadi. Turli xalqlarga xos an'analar, qadriyatlarining xilma xilligi esa o'sha xalq vakillarining tafakkur jarayonida o'ziga hos madaniy senariylarni yuzaga keltiradi. Shu sababli ham turli madaniyat vakillariga hos "milliy xarakter" lisoniy voqelantirishda bir biridan farqlidir.

II- BO'LIM. LISON VA MILLIY XARAKTER UYG'UNLIGI

2.1. Milliy xarakterning lisoniy voqelanish jarayoni

So'nggi yillarda falsafa, madaniyatshunoslik, tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi fan sohalari doirasida insonni yanada chuqurroq o'rganishga e'tibor kuchaydi, uning tabiati, tashqi ko'rinishi, ichki olami, mentaliteti, xarakteri tadqiqotchilar tomonidan keng e'tibor ostiga olindi. Va bu tadqiqotlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki insonning barcha xususiyatlarini uning tili yordamida ochib berish mumkin. Chunki, hozirgi zamonaviy fanlar xulosasiga ko'ra til va tafakkurni bir biridan ajratib bo'lmaydi. Til ongni harakatlantiruvchi vositalardan biridir, u ongda eng oddiy birlamchi tafakkur kategoriyalari paydo bo'lishini taminlaydi. S. Katsnelson (1972:110) "Til nafaqat muloqot quroli balki fikr va g'oyani shakllantiruvchi hamda uni ifodalovchi quroldir" deb yozgan edi. Darhaqiqat, til faqatgina muloqot quroligina emas, balki fikrlar, g'oyalar muallifi hamdir. Bizning maqsadimiz esa insonning tili yordamida u haqida ma'lumot olishdir. Shu maqsad asosida biz umumiy tushunchani, yani ma'lum madaniyatga hos insonlar xususiyatlarini birlashtiruvchi "milliy xarakter" tushunchasini oldik. Bu tushuncha umumiy, ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, biz avvalo uni tashkil etuvchilar yani individual shaxslar xususiyatlarini o'rganmog'imiz lozim. Chunki aynan shu insonlar jamoasi bizga kerakli milliy xarakterni barpo etadi. Biz bu milliy xarakterni esa ularning tili yordamida ochib beramiz, va bunda milliy xarakterni hosil qiluvchi "lison shaxsi" tushunchasiga to'xtalmay ilojimiz yo'q. Zamonaviy tadqiqotlar endilikda qandaydir bir kishi emas balki konkret individ yani shaxs xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Bu shaxs milliy xislatlarni o'zida mujassam etgan, shu tilda so'zlashuvchi jamiyatning ongli vakilidir. Bizni aslida inson xususiyatlari emas, balki uni til yordamida ifoda etgan xususiyatlari qiziqtiradi. Gap shundaki, til bizga yashirin bo'lgan ichki, yani mental dunyoni ochib beradi. Modomiki biz "miilliy xarakter"ning tildagi ifodasini taxlil qilar ekanmiz avvalo uni tashkil etuvchi "lison shaxsi" tushunchasiga to'xtalmay ilojimiz yo'q. Lison shaxsi biz yuqorida

ta'kidlagan individual shaxs bilan bog'liq bo'lib, uning mental dunyosini tilda aks topishini nazarda tutadi.

Har qanday madaniyatni avvalo inson, ya'ni shaxs yaratadi. Shaxs deyilishiga sabab aynan shu shaxs atamasi ostida insonning ijtimoiy jihatlariga urg'u beriladi, inson esa ijtimoiy madaniy munosabatlarning subekti bo'lib qoladi. Shaxs tushunchasi haqida turli hil qarashlar mavjud. Shulardan biri Piskoppel ta'kidlaganidek, - "Shaxs tushunchasi xalqning madaniy an'analari, etnosi zahirida o'rganilmog'i lozim, chunki inson tug'ilishi bilanoq o'z jamiyatining madaniy chegaralari ta'siri ostida shu muhitning madaniy antropologik prototipiga aylanad" (Piskoppel, 1997). Tilshunolikka lison shaxsi tushunchasi ilk bor nemis olimi I. Veysgerberning ilmiy izlanishlari natijasida kirib keldi. Shundan so'ng uni muvaffaqiyatli tadqiq etganlar safiga rus tilshunosi V. Vinogradov qo'shildi, u lison shaxsini o'rganishning ikki yo'lini ishlab chiqdi. Bu tildagi muallif shaxsi va personaj shaxsi kabi tushunchalardir. Lison shaxsi tushunchasining to'liq ko'rinishini esa V. Bogin tariflab berdi, u boshqalardan farqli ravishda lison shaxsi modelini yaratdi. Y. Karaulov ham bu sohada o'z hissasini qo'shgan, uning fikricha lison shaxsi bu matnlarni o'zi mustaqil tashkillashtira oladigan va qabul qila oladigan insonning aynan o'zi bo'lib, ular tilning strukturaviy murakkablik darajasiga, voqeani ifodalashda teranligi va aniqliligiga, ma'lum maqsad yo'nalishiga ega ekanligiga ko'ra farqlanadi. Karaulovning fikricha lison shaxsi tushunchasi uch hil strukturaviy darajaga ega. Ya'ni bunda birinchi daraja verbal- semantik daraja bo'lib tilni egallaganlik malakasini ko'rsatadi. Ikkinchi daraja kognitiv daraja bo'lib, bunda lison shaxsi tushunchalarini aniqlashtirish va nomlash jarayonlari nazarda tutiladi. Bu bosqich shuningdek, lison shaxsi va madaniyatning o'zaro aloqadorligiga asoslangan. Uchinchi yani oily daraja pragmatik darajadir, u o'z ichiga lison shaxsini takomillashtiruvchi maqsad va motivlar xarakteristikasini oladi. Bu uch daraja lison shaxsi bilan bog'liq milliy madaniy axborotlarni yaratish va ularni o'qiy olish qobiliyatini shakllantiradi.

Odatda lison shaxsi tushunchasi o'zida quyidagi komponentlarni birlashtiradi: avvalo u hayotiy maqsadlar va ijtimoiy qadr- qimmatlarni o'zida birlashtirgan

sistema tizimiga ega va bu sistema milliy xarakterni shakllantirishda asosiy yetakchi rolni o'ynaydi. Shuningdek madaniy komponentlar ham lison shaxsini shakllantiruvchi muhim manbalar hisoblanadi. Chunki tilning asosiy tayanch manbasi bu madaniy muhitdir. Demak lison shaxsi bu ijtimoiy hodisadir, ammo unda individuallik aspekti mavjud. Va yana shuni ta'kidlash lozimki, inson tilda ma'lum milliy mentalitet tashuvchisi vositasini bajaradi. I Goncharov insonning tilida uning barcha xususiyatlari aks etishini takidlab, shunday deydi: "Til bu suhbat yoki nutqdan iborat sodda hodisa emas, balki u insonning xaqiqiy ichki obrazidir. U aqlni, qalbni va tarbiyani ifodalovchi kuchli vositadir". Darxaqiqat tilning kuchi beqiyos bo'lgani holda, u bizning turli hislatlarimizni o'zida namoyon etib turadi. Bu hususida V. Gumboldt shunday degan edi: "Tilni o'rganish biror yakuniy maqsadni qamrab olmaydi, balki u oliy va umumiy maqsad bo'lgan insonning o'zini o'zi anglashi va uni o'rab turganlar bilan o'zaro munosabatlarini aniqlashtirib olishi uchun xizmat qiladi". Yuqorida biz falsafaning ham tilshunoslik bilan o'zaro bog'liqligini takidlagan edik. Bunga misol tariqasida shuni aytish mumkinki, XX asr falsafasi tilni skript analiz qilish orqali rivojlandi. Til falsafa uchun faqatgina falsafiy konseptlarni ifodalovchi vositagina emas, balki dunyoni va insonni anglash vositasi hamdir. Bundan ma'lum bo'ladiki insonni o'rganish yoxud uning mentalitetini o'rganish avvalo uning tilidan boshlanmog'i darkor. Milliy xarakterni ham xuddi shunday til prizmasi yordamida o'rganish eng maqsadga muvofiq ishdur. Chunki bunda bizga kerakli madaniy senariylar xalqning barcha mental xususiyatlarini, xarakterini ochib beradi. Biz milliy xarakterni til birliklari yordamida qiyosiy analiz qilish uchun uchta turli, bir biriga yaqin bo'lmagan tillarni tanladik. Bular- ingliz, o'zbek va arab tillari bo'lib, ularning tuzilishi bir biridan keskin farqli bo'lgani holda, ularda so'zlashuvchi insonlar madaniyati ham turli tumandir. Masalan, arab tilini oladigan bo'lsak, bu tilda so'zlashuvchi xalq bilan inglizlarning milliy madaniy dunyoqarashi tubdan farq qiladi. O'zbek tili bilan esa o'xshashlik jihatlari ko'p, chunki bu ikki millatlarning dini va shundan kelib chiqqan diniy aqidalari ham bir xildir. Arab tili aslida Somiy tillar guruhining janubiy tarmog'iga mansub til. Yaqin va O'rta Sharq hamda Afrika shimolidagi yigirmadan ortiq mamlakatning rasmiy davlat tili hisoblanadi. Arab tilida

200 mln. dan ortiq aholi gaplashadi. Qadimiy arab tili mil. av. 5 — 4-asrlarga taalluqli obidalar orqali ma'lumdir. U mumtoz arab tilining paydo bo'lishiga zamin bo'lgan. Mumtoz arab tilining leksik va grammatik shakllanishi johiliya davri (5 - 7-asrlar) shoirlarining og'zaki ijodlarida namoyon bo'la boshlagan. Qur'oni Karimning nozil bo'lishi natijasida mumtoz adabiy tilning badiiyati yanada go'zallashdi va grammatik me'yorlari mukammallashdi. 8 – 9 asrlarda mumtoz arab tili grammatikasi ishlab chiqildi, islom yoyilgan o'lkalarda rasmiy va ilmiy til bo'lib qoldi. Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy va boshqa o'zbek allomalari ham ilmiy asarlarini ana shu tilda yozganlar. Mumtoz arab tili leksik jihatdan bir oz o'zgargan holda, hozirga qadar arablarning adabiy tili bo'lib kelmoqda. Buning asosiy sababi arab dunyosini birlashtirib turuvchi Qur'oni Karim, Hadisi Sharif va boshqa mo'tabar manbalardir. Arab dunyosidagi vaqtli matbuot, nashrlar, radio va televideniye hozirda shu tilda olib boriladi. Arab so'zlashuv tili adabiy tildan keskin farqlanadi, fonetik va leksik jihatdan bir-biriga o'xshamaydi. Misr, Sudan, Suriya, Iroq, Mag'rib, Xasaniya (Mavritaniya), Shoa (Nigeriya, Kamerun, Niger) lahjalariga bo'linadi. Ushbu lahjalar asosan 3 sababga ko'ra yuzaga kelgan: 1) arab adabiy tiliga quraysh qabilasi (Makka) shevasida nozil bo'lgan Qur'oni Karim tili asos bo'lgan, zero o'sha vaqtlardayoq Arabiston yarimorolida yashovchi qabilalarning tillarida turli tafovutlar bor edi; 2) hozirgi arab dunyosining aksar qismi kelib chiqishi arab bo'lmagan xalqlardir. Ular islom ta'sirida arablashgan. Ularning hozirgi so'zlashuv tilida islomgacha mavjud bo'lgan ona tillari unsurlarining bo'lishi, tabiiy; 3) arab dunyosining aksar qismi g'arb istilochilari hukmronligi ostida bo'lganligi hududiy lahjalarning jiddiy farqlanishiga olib kelgan. Turkiston, xususan hozirgi O'zbekiston hududi Arab xalifaligi tomonidan bo'ysundirilgach va islom mahalliy aholi tomonidan qabul qilingach, arab tili hamda arab yozuvi mazkur hududda ilm-fan tili va yozuviga aylandi. Shu bilan bog'liq holda arabshunoslik vujudga keldi.

2.2. Tillarda aks etuvchi voqeliklarning milliy madaniy hususiyatlari

Madaniyat barcha xalqlarga hos bo'lgan diniy va dunyoviy bilimlar majmui, san'at, urf- odat va ananalarning jamiyat hayotida aks etishidir. Shuningdek xalqning fe'l atvori va milliy xarakteri ham madaniyat ko'zgusida o'z ifodasini topadi. Til esa bularning barchasini o'zida mujassam etgan madaniyatning bir bo'lagidir. Shu sababli ma'lum bir tilning milliy madaniy hususiyatlari boshqa bir tilda o'zgacha qiyofada ko'rinishi shubxasiz. Jamiyat madaniyatini o'rganmay turib uning tilida aks etgan voqeliklarni anglash juda mushkul. Hozir shu muammoning ingliz, o'zbek va arab til birliklaridagi ba'zi bir ko'rinishlarini taxlil qilamiz.

Bazi bir voqeliklar boshqa tillarda umuman uchramasligi va u haqida tushunchaning o'zi ham bo'lmasligi mumkin. Yoki aksincha tushuncha tillarda bir xil ammo uning milliy madaniy hususiyatlardan kelib chiqqan talqini butunlay boshqa boshqa bo'lishi ham mumkin. Hozir ushbu ikki ko'rinishga misollar yordamida tushuntirish berib o'taman.

Avvalo, birinchi ko'rinish ya'ni jamiyat tomonidan milliy deya tan olingan, uning madaniyatining bir bo'lagiga aylangan hodisa yoki tushunchaning boshqa jamiyat uchun tushunarsiz va noodatiy ko'rinishga ega bo'lishi. Bu jarayonni ko'proq boshqa boshqa dinga e'tiqod qiluvchi millatlarning tillarida kuzatishimiz mumkin. Chunki diniy aqidalar barcha xalqlarda ham madaniyatga kuchli ta'sir etgan omillardan biri hisoblanadi. Masalan, musulmon arab davlatlarida erkak kishi ayollari orasida tenglik va adolatni o'rnatish uchun, uning to'rtta xotinga uylanish xuquqi qonunlar bilan tasdiqlab qo'yilgan. Xristian diniga e'tiqod qiluvchi g'arbda esa ko'pxotinlilik taqiqlanadi va ularda "ko'p xotin olish xuquqi"ning o'zi yo'q. Shu sababli ham ularga bu hodisa tushunarsiz va bema'ni chunki bunday hodisa ular madaniyatining bir bo'lagi emas. Arab madaniyati esa juda ham diniy madaniyat hisoblanadi. Ular qo'llaydigan kundalik jumlar ham diniy qarashlar bilan bog'liq. Ayniqsa Arablar Alloh nomini kundalik muloqot jarayonida ko'p qo'llaydilar. Bu so'z turli kontekstlarda qo'llaniladi va ko'pincha u diniy qarashlar bilan bog'liq

bo'lmaydi, balki arab madaniyatining o'ziga hos bir ko'rinishi bo'lib xizmat qiladi. Masalan salomlashish arabalarda *As-salamu alaykum* ya'ni sizga tinchlik bo'lsin deganidir. *As-salam* aslida Alloh taoloning nomlaridan biri hisoblanadi va u tinchlik, sihat salomatlik degan ma'nolarni ifodalaydi. Bizdning madaniyatimiz ham Islom dini bilan bog'liq ekanligi bois bizning salomlashish jumllarimiz arablarniki bilan bir hil. Ingliz madaniyatida salomlashish yaxshi kun tilash, ya'ni *Good day* deyish bilan yakunlanadi. Biror narsani rejalashtirganda yoki uning yaxshi yakunini istab arablar *Inshaaloh* ya'ni agar alloh hohlasa jumlasini ko'p qo'llaydilar, inglizlarda esa bunday ma'nodagi ibora yo'q. O'zbek madaniyatida *Xudo hohlasa* iborasi aynan shu ma'noda ko'p qo'llanadi. Shuningdek arabarda keng tarqalgan yana bir ibora bu *Alxamdulillah* ya'ni rozilik, xursandlik ma'nosini beruvchi allohga xamd bo'lsin jumlasidir. Inglizlar *Thanks God* iborasini shu ma'noda qo'llaydilar, ammo uning ishlatilish o'rni arablarnikidek ko'p emas. O'zbeklarda shu manoni ifodalovchi *Xudoga shukr* jumlasini keng tarqalgan. Arablar keng qo'llaydigan iboralardan yana biri *Astag'firullah*, yani Allohga istig'for aytishdir. Ular biror yomon eshiksalar yoki aytsalar darhol ushbu jumlaning qo'llaydilar. Shuningdek arablar kundalik hayotda keng qo'llovchi *Vallah, Billah, Mashallah, fi Aman Allah* iboralari bizning va Ingliz madaniyatida deyarli qo'llanilmaydi. Aslida diniy qarashlari jihatdan xristian diniga etiqod qiluvchilar va islom diniga e'tiqod qiluvchil kishilarning ko'p tomonlari bir biriga o'xshash. Chunki bu dinlar ya'ni – Nasroniylik, Xristianlik va Islom dinlari Ibrohim dini ya'ni Inglizlarda *Abrahamic religions* deb yuritiladi. Shu sababli bu din vakillarining milliy madaniy qarashlari, tillaridagi diniy iboralarning tafovuti unchalik katta emas. Diniy qarashlari jihatdan Islom va Xristian dinlari vakillari quyidagi umumiyliklarga ega:

- Bu ikki din vakillari yagona Allohga ishonadilar
- Bu ikki din vakillari farishtalarga ishonadilar
- Bu ikki din vakillari ham hisob kuni ya'ni qiyomat kuniga ishonadilar
- Qilmishlariga yarasha mukofot yoki jazo olishlariga ishonadilar
- Etnik va axloqiy-ruhiy qarashlari bir xil
- Iso payg'ambarning yer yuziga yana bir marta kelishiga ishonadilar

- Iso payg'ambar ko'rsatgan mo'jizalarni tan oladilar va ishonadilar

-Ikki din vakillari ham xayriya ehson qilish lozimligiga ishonadilar, va bularning barchasi bevosita bu ikki millat madaniyatlarida va milliy xarakterida o'z aksini topgan. Shu o'rinda o'xshash bo'lmafgan jihatlarni sanab o'tsam: diniy qarashlarimiz o'rtasidagi asosiy tafovutlar shundan iboratki, Islomiy qarashlarga ko'ra hech bir inson gunohkor bo'lib tug'ilmaydi, balki uning iymoni va qilmishlari kelajakda qanday inson bo'lishini ko'rsatadi. Qur'oni Karim ma'lumotlariga ko'ra musulmonlar Iso payg'ambarning chormixga tortib o'ldirilganiga ishonmaydilar, balki u tirik holda samoga ko'tarilgan va bir kuni yer yuziga adolat o'rnatish uchun yana qaytib keladi. Yana Qur'oni Karim Iso alayhissalomning payg'ambar va Alloh tomonidan yuborilgan elchi ekanini tasdiqlaydi, u Allohning qudrati bilan mo'jizalar ham ko'rsatgan ammo u iloh emas. Musulmonlar uchun barcha payg'ambarlar shu jumladan Muhammad alayhissalom ham inson qavmidandir. Islom dini Allohning yagonaligiga, uning tug'magan va tug'ilmaganligiga urg'u beradi. Bularning barchasi diniy qarashlarimiz o'rtasidagi farqlardir va u madaniy hayotda o'z aksini ko'rsatadi. Milliy xarakterni belgilashda insonlarning *iymoni* ya'ni inglizchada *faith* keng o'rin tutadi. Masalan diniy o'xshashliklarimiz asosida ingliz, o'zbek va arab madaniyatlarida bir hil qarashlarni ifodalovchi turli til birliklari mavjud. Bularning bazilarini ko'rib chiqamiz. Inglizlarda *a mecca for someone/ something* iborasi mavjud bo'lib, bu ibora umumiy qiziqishga ega bo'lgan kishilar tashrif buyuruvchi maskanni ifodalaydi. Bilamizki Makka shaxri Islom dinida haj ziyorati amalga oshiriladigan muqaddas maskan hisoblanadi. U yer haj mavsumida musulmon ziyoratchilar bilan to'lib ketganligi sababli inglizlar o'z iboralarida ramziy ma'no sifatida Makka shaxrini ko'rsatmoqdalar. Inglizlarda keng qo'llaniladigan yana bir ibora ya'ni *am I my brother's keeper?* iborasi ham diniy rivoyatlarga borib taqaladi. Uning ma'nosi kimnidir kuzatib yurishin kerakmi, yoki kimgadir javobgarmanmi degan tushunchani ifodalaydi. Agar biz bu iboraning tarixi bilan qiziqsak uning diniy Qobil va Xobil afsonasiga bog'liq ekanini ko'ramiz. Inglizlarda bu ikki aka uka Cain va Abel deb atalib, ular haqidagi rivoyat Bibliyada keltirilgan. Unga ko'ra o'z ukasiga xasad qilgan Xobil o'z jigarbandi Qobilni o'ldiradi va bu insoniyat tarixidagi

birinchi jinoyat bo'ladi. Xudo Xobildan sinash uchun, –Ukang qayerda? – deb so'raganda u –Nima, men ukam qayerdaligini kuzatib yurishim kerakmi? deya javob beradi. Uning ana shu so'zlari Inglizlarning am *I my brother's keeper?* iborasiga aylangan. Shuningdek bu ibora boshqa birovning xatti harakati uchun men javobgar emasman degan ma'noda ham qo'llaniladi. Hammamizga yaxshi ma'limki jamiyatda turli hildagi insonlar bo'ladi. Ular orasida diniy qarashlarni rad etuvchilar ham topiladi. Shundaylar insofga kelib, vijdonini poklaganda Ingliz xalqi ularning bu ishiga *an act of faith* deb aytadi. Inglizlarda yana shunday ibora bor; *an act of God*. Bu ibora Inglizlar ham ulug' yaratuvchining ishlariga bo'ysunishlarini va unga itoat etishlarini ko'rsatadi. Faqatgina Allohning irodasi bilan bo'ladigan ishlar, masalan kuchli to'fon, zilzila, tabiiy ofat kabilar sodir bo'lganda aynan shu iborani qo'llaydilar. O'zbek tilida ham aynan shunday, yani *Allohning ishi* degan ibora mavjud, Ko'pchilik holatlarda bu iborani birorta inson vafot etganda uning yaqinlariga hamdardlik bildirish, ularni yupatish uchun aytamiz va uni *Allohning irodasi* ko'rinishida talqin etamiz. Arab xalqlarida ham musulmonlar birorta baxtsizlik yoki yo'qotish bilan to'qnash kelganda *inna lillahi va inna ilayhi rajiun* iborasini qo'laydilar. Bu ibora Qur'oni Karim oyatlaridan olingan bo'lib uning ma'nosi albatta biz Allohnikimiz va unga qaytuvchimiz deganidir. Bizning xalqimizda, agar kimdandir xursand bo'lsak *Alloh sizdan rozi bo'lsin* deb aytamiz. Albatta inson uchun faqat Allohning roziligi eng katta baxtdir. Xalqimiz minnatdorchilik bildirish sifatida aytadigan bu iborasi esa bildiriladigan eng yaxshi tilaklardan ham afzalroqdir. Xalqimiz yaxshilikni istagani uchun boshqalarga ham eng yaxshi ezguliklarni tilaydi. Bu xalqimiz xarakteridagi bag'rikenglik hislatidir. Arablar ham biz kabi yaxshilikni javobsiz qoldirmaydilar. Ular yaxshilik qilgan kishiga *shukran* (raxmat) va جزاك الله خيراً *Jazakallohu xoiran*, ya'ni Alloh sizni yaxshilik bilan mukofotlasin deb aytadilar. Diniy qarashlarimiz bir xil bo'lganligi sababli arab va o'zbeklarning ma'lum bir holatlar uchun qo'llaydigan iboralari mazmunan bir biriga yaqin, shaklan esa biroz boshqacharoqdir. Masalan, xalqimizda uzoq safarga otlangan yaqiniga *Allohning panohiga topshirdim* iborasini qo'llash odati bor. Arablarda ham xuddi shunday ma'nodagi ibora في امان الله *fi amanalloh*

iborasidir. Diqqatga sazovor jihati shundaki, uni arablar bizdan farqli ravishda har kuni xayrlashgandan so'ng qo'llaydilar. Demak bizning milliy kontekstimizda bu ibora birmuncha kamroq qo'llaniladi. Matn analizi yoki tarjimasi jarayonida mana shunday milliy stereotiplarni hisobga olish juda muhim, aks holda biz kutgan natija kelib chiqmasligi mumkin. Xalqlarimiz orasida o'xshash urf odatlar ham ko'p. Shulardan biri diniy qarshlarimiz bilan bog'li bo'lgan sadaqa va zakot berishdir. Nochorlarga xayr- ehson berganda o'zbeklar *Allohnin roziligi uchun* deb aytadilar, arablarda ham xuddi shunday yani *في سبيل الله fi sabilillah* deyish odati bor. Diniy jihatdan ham xayr qilish, sadaqa berish eng yaxshi hislatlar hisoblanadi. Bu hislatlarga ega odamni esa xalqimiz qo'li ochiq deb e'zozlaydi. Aslini olsak qo'li ochiqlik inglizlarda ham qadrlanadigan fazilatdir. Ularning mentalitetida ham yaxshilik qilishning eng afzali sifatida nochorlarga qilingan hayriya tushuniladi. Bunga hayriya bilan bog'liq turli ingliz xalq maqollari, sitatalari, badiiy asarlari dalolat bo'la oladi. Shulardan bir nechtasini keltirib o'taman: *Charity begins at home, but should not end there*- Inglizlar hayr ehon avvalo oiladan boshlanishiga va bu yerda to'xtab qolmay uni davom ettirish kerakligiga urg'u bermoqdalar. Xalqimizda ham shunga o'xshash *Xayr qilsang, butun qil*.degan naql bor. Yana bir Ingliz maqoli *Charity in life is more than all ceremonies* qilingan ehsonning fazilatlari ko'p ekaniga ishora qiladi. O'zbeklar ko'p qo'llaydigan sadaqa balolarni daf qiladi iborasi ham sadaqaning yomonliklarni yo'qotib, yaxshilik keltirishiga ishora qiladi. Uning asosi esa diniy bilimlarimizga borib taqaladi. Inglizlarda takidlaganimizdek ehson berishga undovchi xikmatli so'zlar ko'p, masalan, *It is more blessed to give than to receive, With malice towards none, with charity for all, In charity there is no excess, Charity is a double blessing, This only is charity, to do all, all that we can, Charity covers a multitude of sins*. Ehson qilishga davatlar Xristianlarning diniy kitobi Bibliyada ham juda ko'p takrorlanadi. Shulardan biri quyidagicha: *If there is a poor man among your brothers in any of the towns of the land that the LORD your God is giving you, do not be hardhearted or tightfisted toward your poor brother*. O'zbek milliy til xazinasini ham hayr ehson qilishga rag'batlantiruvchi turli hikmatli so'zlar maqolu iboralar bilan to'la. Xalqimizda qo'li ochiq kishini sahiy, tanti,


qizg'anchiqni esa baxil, xasis deb atashadi. Milliy mentalitetimizda ideal inson obrazi tabiiyki sahiy dehqonbobo qiyofasida shakllangan. Yana shuni aytish mumkinki *qo'li ochiqning yo'li ochiq aynan* bizning mentalitetimizdan kelib chiqqan ibora. Xalq durdonalari sanalmish maqollarimizda ham milliy xarakterimiz sezilib turadi. Masalan, *Keng bo'lsang, kam bo'lmaysan, Maqtasang, saxiyni maqta, toptasang, baxilni topta, Himmati yo'qning hurmati yo'q, Himmatli himmatidan topar, Saxiyning o'ng qo'li berar chap qo'li bilmas, Saxiy bilan baxil bir buloqdan suv ichmas, Saxiy topsa o'rtada, baxil topsa xaltada, Bermaganni berib uyaltir, Baxil bo'lma, saxiy bo'l, o'smog'ingga to'g'ri yo'l, Tangrining molini shayton qizg'anar* kabi xikmatli so'zlarda xalqimiz milliy dunyoqarashi aks etgan. Arablarda ham sahiylik ulug'lanadi, masalan, *أجهل الناس من كان على السلطان مدلا وللإخوان مدلا أجود من حاتم* xikmati baxil sultondan sahiy hotam yaxshi deb uqtiradi. Hotam so'zi qadimdan yashagan sahiy kishi nomidan olingan bo'lib qo'li ochiq insonlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. O'zbek tilida ham hotamtoy so'zi mavjud bo'lib, uning ma'nosi ham sahiy kishidir. Diniy bilimlarimiz o'z aksini topgan xikmatlarni, iboralarni taxlil qilish jarayonida yana shu narsaga guvoh bo'ldikki bizning tilimizdagi *baraka* so'zi va arablarning *بارك الله فيكم barakallahu fikum* iboralarining o'z milliy madaniy hususiyatlari mavjud ekan. Masalan bizda barakalla so'zi maqtash, rag'batlantirish uchun ishlatiladi. Bu so'z bizning mentalitetimizda yaxlit bir leksema sifatida anglashiladi. Aslida esa bu arabchadan olingan ibora bo'lib uning ma'nosi sizga Allohning barokati bo'lsin demakdir. Arablarda uning ishlatilish o'rni ham turlicha, masalan ularda kimgadir raxmat aytish yoki yaxshi niyat bildirish ma'nosida ham bu iborani ishlatish mumkin ekan.

Ko'pchilik tushunchalar insoniyat tafakkurida bir xildir. Masalan yaxshilik go'zal qiyofada ongimizda gavdalansa, yovuzlik esa unindg aksi xunuk va ayanchli siymoda gavdalanadi. Shu bilan birga yaxshilik mukofotga sazovor bo'lishi, yomonlik esa jazo olishi barchamizga yaxshi ma'lum. Barcha diniy bilimlar ham bularni tasdiqlaydi. Ya'ni yaxshilar uchun go'zal jannat, yomonlar uchun esa daxshatli do'zax muqarrardir. Tilimizda ham chiroyli narsalarni jananatga qiyoslaymiz. Masalan, Inglizlar *a land of milk and honey* iborasini juda chiroyli


yerlarni tasvirlash uchun ishlatadilar, bizlarda bu ibora *misoli jannat* deb yuritiladi. Shuningdek inglizlarda juda xursand ekanlikni tasvirlash uchun *in heaven* iborasi qo'llaniladi. Bizning madaniyatimizda ham aynan shu iboraning tarjima va qo'llash ekvivalenti mavjud bo'lib, u *yettinchi osmonda* iborasidir. Ko'rib turibmizki barcha tillarda ham insonlar ezgulikni jannat kabi go'zal ma'no yashiringan iboralar bilan tasvirlaydilar. Yovuzlik esa ko'proq do'zax nomi bilan yonma yon keladi. Inglizlarda ham yashi va yomon hislatlarni tilda tasvirlash uchun heaven va hell so'zlaridan keng foydalanadilar. Buni biz shu so'zlar ishtirok etgan iboralar tahlili natijasida ham kuzatishimiz mumkin. Ingliz madaniyatida *move heaven and earth to (do something)* iborasi kuchli say- harakat va urinishni ifodalaydi. Hell so'zi ishtirok etgan iboralar ham turli tuman bo'lib, ularning aksariyati bizga ingliz mentalitetiga hos ayrim jihatlarni namoyon etadi. Masalan, *go to hell* iborasi o'ta tushkun vaziyatlarda qo'llanilib, biror narsaning barbod bo'lganligiga ishora qiladi. O'zbek tilida hell yani do'zax so'zi kuchli salbiy ma'noni ifodalaydi va milliy kontekstimizda aynan shu manolarda qo'llanilmaydi. Uning o'rniga *chippakka chiqdi* iborasini qo'llash maqsadga muvofiq. Yana bir qator salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan hell so'zi ishtirok etgan iboralar quyidagilardir: *to go to hell in a handbasket, give (someone) hell, get hell, as hot as hell, raise hell with (someone)* va boshqalar. Bularning barchasi negativ ko'rinishni ifodalagani holda ijobiy ma'noga ham xizmat qilishi mumkin va ular ingliz madaniyatida keng qo'llaniladi. Masalan, *Hell is paved with good intentions* ("do'zax ham ezgu niyatlar asosida yaratilgan"), *Better to reign in hell, than serve in heaven* ("jannatda xizmat qilgandan ko'ra do'zaxda hukmronlik qilgan afzal"), *The devil is not so black as he is painted* ("shayton tasvirlaganlaridek qop – qora emas", ya'ni "qo'rqqanga qo'sh ko'rinar"), *He that sups with the devil should have a long spoon* ("shayton bilan sho'rva ichmoqch bo'lgan odamga uzun qoshiq darkor", ya'ni "yomon bilan hamtovoq bo'lsang, o'zingdan o'pkala").

Yana bir qator din bilan bog'liq sozlar borki, ularning bazilari tarjima qilinadi bazilari esa shundayligicha qabul qilinadi. Tarjima qilinmay shundayligicha qabul qilingan so'zlar ko'pincha o'z milliy madaniy hususiyatlarini o'zgartiradi, yani ikkinchi xalq mentaliteti va miliy kontekstiga moslashadi. Fikrimizning dalili uchun

arablardagi عيد (eid) soʻzini olaylik. Bu soʻz arablarda bayram, tantana kabi maʼnolarni ifodalaydi. Oʻzbek tilidagi xayit soʻzi arablarning aynan shu eid soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, u bizning tilimizda metonimiya hodisasiga uchragan. Natijada birgina xayit soʻzining oʻzi faqatgina diniy boʻlgan barcha bayramlarga yani ramazon va qurbon xayitlariga ishora qiladi. Arablardan farqli ravishda biz ana shu bayramlarnigina xayit deb nomlaymiz. Birgina *xayit bayrami* iborasining oʻziyoq mana shu fikrimizga dalil boʻladi. Arablar esa bizdan farqli ravishda eid soʻzini bir qancha bayram nomlari bilan birga qoʻllaydilar. Bunda eid bizning tilimizga bayram deb tarjima qilinadi. Masalan عيد الفطر (*eid al fitr*) yani ramazon oyining oxiridagi musulmonar uchun ulugʻ boʻlgan ramazon xayitining arabcha nomlanishi. Agar toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilsak roʻ bayrami degan ibora kelib chiqadi. Yana shulardan, عيد الأضحى (*eid al adha*) oʻzbek tilida qurbon xayiti bayramidir. Mana shu ikki bayramlarni biz xayit deyishga odatlanganmiz. Xayit deyilishi bilanoq koʻz oldimizda ulugʻ bir kun, jamoat bilan oʻqiladigan xayit namozi, xayitning boʻgʻirsoq, chak-chak, qushtili kabi noz nematlari gavdalanadi. Bularning barchasi ana shu soʻzning oʻzbek xalqi uchun ifodalagan milliy madaniy xususiyatlaridir. Shuningdek yana bir metonimiya hodisasiga uchragan soʻz bu arab tilidan kirib kelgan “xalva” yani oʻzbekcha xolva soʻzidir. Arablar bu soʻzni barcha shirin narsalarni, shirinlik turlarini nomini atash uchun emas balki ularning taʼmini totli ekanini bildirish uchun qoʻllaydilar. Oʻzbek xalqida esa bu soʻz kirib kelgach, vaqt oʻtib faqatgina maxsus undan tayyorlanadigan shirinlik nomini atash uchun qoʻllaniladigan boʻldi. Buni biz oʻz ehtiyojlarimiz taʼsirida soʻz maʼnosining toraytirilishi yoxud uning boshqa tilda metonimiya xodisasiga uchrashi deb atashimiz mumkin. Bu hodisaning namoyon boʻlishi esa albatta, oʻsha xalqning madaniy saviyasi, milliy xarakter xususiyatlari, urf odat va anʼanalariga bogʻliq boʻladi. Agar biz maʼnolarni kengroq ochib berish uchun freym analizini qoʻllasak, u holda oʻzbek va arab xalqlaridagi xayit soʻzi quyidagi koʻrinishga ega boʻladi. Oʻzbek xalqida:



Arab xalqlarida eid so'zi bayram ma'nosini ifodalagani uchun u quyidagi iboralar tarkibida qo'llanib, alohida tushunchalarni hosil qiladi, buni biz quyidagi freym jadvalida ko'rishimiz mumkin:



Ko'rib turganimizdek, har qanday tushuncha o'z milliy madaniy hususiyatlariga egadir. Bu hususiyatlar millatning fe'l atvori, turmush tarzi, urf odat va ananalaridan kelib chiqqan holda o'sha tushunchani ifodalovchi til birligining qo'llanish doirasi (kontekst) ni belgilaydi. Shunday ekan, insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning strukturaviy va mazmuniy sathlarida milliy xarakter elementlarining ham aks topishi tabiiydir. So'zsiz bu milliy xarakter aynan o'sha madaniy muhitda, kundalik hayot faoliyatida uchraydigan voqelik hodisalari ta'sirida yuzaga keladi. Shu sababli turli madaniyat vakillari uchun kategoriyalashtirish hodisasi ham bir xilda kechmaydi.

III- BO'LIM: MILLIY XARAKTERNI IFODALOVCHI TIL BIRLIKLARINING QIYOSIY TAHLILI

3.1. Tillarga hos milliy madaniy hususiyatlar tafovuti

Tillarga xos bo'lgan milliy madaniy hususiyatlar konseptining paydo bo'lishi shunday to'plamki bunda “Har bir sivilizatsiya va ijtimoiy tuzum dunyoni qanday idrok etishiga ko'ra xarakterlanadi” (Gurevich, 1972,17). Shuningdek, V.Gumbolt quyidagi fikrlarni bildiradi “Har bir til o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan to'plamdir” va yana “har bir til o'ziga tegishli millatning ifodalovchisigina emas balki u shunday bir chegaralangan doiraki, boshqa davraga qo'shilsakgina undan chiqib ketishimiz mumkin” (Gumbolt, 2000). Tilshunos Z.D. Popova va I. Sterninlarning fikriga ko'ra esa milliy madaniy hususiyatlarni o'xshash vaziyatlardagi millatlarning bir xil hatti xarakatlari yoki, odamlarning voqelikka nisbatan umumiy qarashlari deyishimiz mumkin (Z.D. Popova, I. Sternin, 2007). Til barcha millat va elatlarning dunyo xaqidagi bilimlarini ifodalovchi, yaratuvchi va saqlab turuvchi quroldir. Til jamiyatga xizmat qilish bilan bir qatorda uning taraqqiyotini va gullab yashnashini belgilovchi omildir. Insoniyatning moddiy va manaviy dunyosi takomillashib borgani sari, til ham u bilan birga sayqallanib boradi. Shuning uchun ham insoniyatning barcha xayotiy tajribalari, muvaffaqiyatlari, xatoyu- kamchiliklari, yashash prinsplari, manaviy andozalari, ruhiy orzu-istaklari, borliq haqidagi bilim va ko'nikmalari tilda aks etadi.

Milliy mentalitet ma'lum bir millatga hos bo'lgan falsafaiy, diniy, siyosiy, ijtimoiy qarashlar bilan uzviy bog'langan. Yuqorida takidlanganidek har bir etnik guruhning o'ziga hos, bir birini takrorlamaydigan dunyoqarashi bor. Bu bevosita tilda aks etuvchi milliy madaniy hususiyatlar o'rtasida ham tafovutni keltirib chiqaradi. Agar biz ingliz tilida so'zlashuvchilar madaniyatini olib qarasak, bu faqat Angliya yoki Amerika madaniyati namunasi degani emas. Milliy madaniy tafovutlar nuqtai nazaridan olib qarasak dunyoqarash ham bir biridan farqlanadi va bu o'z navbatida til

birliklarida ifodasini topadi. Agar biz Amerika va Britaniya muxbirlarining bir mavzu yuzasidan yozgan maqolalarini taxlil qilsak buning yaqqol misolini kuzatamiz. Masalan O'rta Sharqdagi diniy va siyosiy mojarolar aks etgan "mustaqillik va demokratiya sari tarixiy missiya" ni muxbirlar deyarli har xil taxlil qiladilar. Bizning o'zbek mentalitetimizda ham tinchlik va demokratiya tushunchalari sharqona falsafaga va milliy madaniy tamoyillarga asoslangan holda biroz boshqacha talqin qilinadi. Mentalitetning barcha xususiyatlarini faqatgina til yordamida qamrab olib bo'lmaydi, balki bu jarayon boshqa ekstra- lingvistik voqeliklarni ham talab qiladi.

Insoniyatga xos hislatlar umumiy yoki milliy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Masalan, barcha millatlarda ochko'zlik, manmanlik, qasoskorlik, qo'rqqoqlik, xoinlik kabi illatlar salbiy hisoblanadi va ularga bolgan munosabat ham tilda negativ qiyofada shakllanadi. Shu bilan birga ma'lum urf odat yoki an'analar zahirida shakllangan shunday hislatlar borki ular faqat ma'lum millatgagina tegishli bo'lishi mumkin. Bizning o'zbek xalqimizda "kattalarga, ota-ona, qarindosh-urug'ga xurmat" hislati yetakchi o'rinda turadi va bu xarakter takrorlanmas "o'zbek milliy xarakteri" dir. Aynan "xurmat" tushunchasi boshqa millatlarda ham mavjud, ammo ularning milliy madaniy qarashlari tufayli u o'zgacha qiyofada namoyon bo'ladi. O'zbek xalqiga xos kattalarni sizlash, yoshi ulug'larni e'zozlash, mexmonni xurmatlash odobini boshqa millatlarda kuzatish qiyin. Shunga muvofiq o'zbek tilida *qarisi bor uyning parisi bor, kattalarga xurmat, kichiklarga izzat, mexmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan* kabi xurmat tushunchasi aks etgan maqolu iboralar juda ko'p. Ingliz milatida esa bu tushuncha aksincha qarshi falsafaga asoslangan, va shu sababli ham ularda ko'proq millat obro'sini ko'taradigan ozodlik, mustaqillik, pragmatizm kabi tushunchalar qadrlanadi. Ularda qadr qimmat biror ishda tezkorlik, aniqlik, o'z kuchiga ishonish, individualizm kabi prinsplarga tayanadi. Fedotovskaya takidlaganidek, "ular biror ishni kimdir aytgani uchun bajarishni hush ko'rishmaydi". Bu ham ingliz millatining o'ziga xos xarakter hususiyatlaridan biridir.

Miliy madaniy ong, qadr-qimmat va xarakter barcha millatlarda o'ziga xos qiyofada gavdalanadi. Shu sababli ham ma'lum tushunchani yoki hususiyatni tildagi

talqini barcha millatlarda bir biridan farqli. Tildagi milliy va mental xususiyatlarni o'rganish uchun avvalo millat xarakterini o'rganish lozim. Shu o'rinda aytish joizki biz taxlil qiladigan ingliz, o'zbek va arab millatlari xarakteri bir birdan tubdan farq qiladi. Ingliz millatida eng avvalo e'tiborga molik hislat sifatida mustaqil bo'lishga intilish, tenglikka qat'iy rioya etish kabilarni misol keltirish mumkinki, ular o'z navbatida til va muloqotning asosiy bazasini tashkil etadi. *“If you want a thing well done- do it yourself”, “respect yourself or no one else respect you”* iboralari buning yaqqol aksi bo'la oladi. O'zbeklarga xos bo'lmagan *“o'z fikringni o'tkazma”* ya'ni *“don't impose!”* ingliz millati madaniyatida chuqur o'rin egallagan birlamchi xarakter ko'rinishidir. Chunki ular o'z xuquqlari poymol etilishini yoqtirishmaydi, ko'p xollarda qarorlarni mustaqil qabul qilishni afzal ko'rishadi. Ingliz milliy xarakterining negizini esa faqat o'ziga o'zi javobgar bo'lgan turli konglomerat individuallari tashkil etadi. O'zbek milliy xarakteri esa undan farqli ravishda kollektivlik ruhiyati yuqori bo'lgan ijtimoiy qatlam ko'rinishida aks etadi. O'zbek xalqi asrlar mobaynida jamoa bo'lib istiqomat qilib kelgan va oilasi, o'z urug'i, el-elati, vatani, kasb-koriga sodiqlik asosiy tamal toshi vazifasini o'tagan. Xalqimizning jamoaviy tabiati uning nafaqat o'troq turmush tarzida yashovchi qismida, balki chorvachilik bilan band guruhlar uchun ham xos xususiyat bo'lgan. Buni xalq tili bilan aytganda *“eldan oshma, eldan qolishma”, “xalq ishi – haq ish” “birlashgan o'zar- birlashmagan to'zar”* kabilar misolida ko'rish mumkin. Malumki, psixologiyada “MEN” degan tushunchasining turli darajalari mavjud. Ya'ni bular, “katta men” va “kichkina men” ko'rinishlaridir. Ingliz tarixi, adabiyoti va tilini o'rgangan bir gurux olimlar bu millat xarakterida “Big I” yani egoistlik hususiyati ko'proq namoyon ekanini takidlaydilar. O'zbek xalqi mentalitetida menlik hususiyati umumiy hoda ko'zga tashlanmaydi. Jamiyatimiz insonlariga “oltin o'rtalik” darajasi ko'proq muvofiq keladi. Buning dalili sifatida xalqimizning buyuk vakili Ibn Sinonig quyidagi gaplarini keltirib o'tish joizdir: *“El ichinda ko'p ahchiq so'zli bo'lmaginkim odamlar seni tuflab yuborurlar, xargiz o'ta shirinsuhan ham bo'lmaginkim ular seni yutib yuborurlar”*.

Millatlar xarakteri o'rtasida navbatdagi e'tiborga molik jihat bu xalqimiz qon qoniga singib ketgan o'zgalar ishiga o'ta qiziquvchanlik hususiyatidir. Inglizlarda bu tushuncha “nosey” (nosy) deb atalsa ham ularda xarakter hususiyatini aslo uchratmaymiz. Ular siz bilan bemalol xol-ahvol so'rashishlari, ob-havoni erinmay muhokama qilishlari mumkin, lekin suhbat ularning shaxsiy hayoti, oilasi, moddiy jamg'armalari hususida borishi mumkin emas. Aks holda suhbat chog'ida biz ularning “o'z xususiy ishlariga aralashib, inglizcha muloqot qoidalarini qo'pol ravishda poymol etgan bo'lamiz. Shu sababli ham biz ingliz madaniyatida “live and let live” “a tattler is worse than a thief” , “he that serves everybody is paid by nobody” qabilidagi maqollaru iboralarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Arab mentaliteti ham shu jihatdan inglizlarga yaqin turadi, ularda ham oshkoralikdan ko'ra sirlik ko'proq qadrlanadi.

Yuqorida tarif berganimiz tenglik, o'z o'ziga bo'lgan erkinlik hislatlari madaniyatlar orasida bir biridan tubdan farq qiluvchi xarakter ko'rinishlarini, urf - odat va an'analarni keltirib chiqaradi. Jamiyatning har bir azosi o'zini teng huquqli individ sifatida shakllantirgani bois o'zbek madaniyatiga hos bo'lgan “hurmat” konsepti ingliz va arab dunyosidagi “respect” va احترام (ihtira'm) dan tubdan farq qiladi. A. Navoiyning quyidagi bandlari bunga mukammallik kiritadi:

Farzand ato qullig'in chu odat qilg'ay,
 Ul odat ila kasbi saodat qilg'ay,
 Har kimki atog'a ko'p rioyat qilg'ay,
 O'g'lidan anga bu ish siroyat qilg'ay.

Darxaqiqat, o'zbek millatida hurmat tushunchasi juda ham oliy fazilat, ulug' bir qadriyat hisoblanadi. Oiladagi, jamiyatdagi barcha munosabatlar ana shu tushunchaga asoslangan. Tasavvur qiling avtobusgayoshi ulug'roq bir inson, yoki ayol kishi chiqdi deylik. Bu holatda biz o'z mentalitetimiz, ahloq hurmat chegaralarimizdan chiqmagan holda ularga darxol joy bo'shatishga xarakat qilamiz. Bu yozilmagan qonun xalqimiz xarakteriga singib ketgan. Birorta Ingliz davlatlarida shunday vaziyat bo'lib qolsachi? Yo'q u yerda yoshmi, qarimi , ayolmi, erkakmi, bunday qilish yaramaydi. Chunki bu bilan biz ularni ma'lum ma'noda kamsitgandek

bo'lamiz. Chunki ularga bunday odatlar yot. Shuni unutmangki ularda barcha narsa tenglik asosida. Agar siz katta yoshli odamga xurmat uchun o'ringizdan tursangiz u buni yoshini kamsitish deb tushunishi, yoki aksincha ayol kishiga ko'rsatilgan shunday iltifot unga nisbatan jinsiy kamsitish deya tushunilishi mumkin. Hattoki tilimizdagi "sen" emas balki "siz" deb murojat qilish odati ham aynan millatimizga hos milliy xarakterning bir ko'rinishidir. Oilada ota onaga, kichik kattaga, ayol o'z eriga sizlab murojaat etishini hurmat konseptining bir bo'lagi bo'lgan freymlari misolida kuzatishimiz mumkin. Milliy madaniyatimizning boy manbai bo'lgan A. Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanidan bir lavha: "*Amakingiz biznikiga kelib turadigan vaqtlarda siz yosh bola edingiz, bek, -dedi. Amakingiz sizni saroylarga ham olib tushar edilar*". Bu lavhada roman qaxramoni Hasanalining Otabekka qarata aytgan nutqidan bir parcha keltirilgan. Avvalo bu parchani o'qigan o'quvchiga so'zlovchining yoshi bekning yoshidan ancha ulug'roq ekani darrov ma'lum bo'ladi. Shunday bo'lsada so'zlovchi unga "siz" deya murojat etmoqda. Bu ham aslida hurmatning bir ko'rinishi, sharqona odob va hayoning madaniyatimizdagi so'z orqali ifodalanayotgan aksidir. Yana bir misolni Kumushbibining Otabekka yozgan xatidan bir parchada ko'ramiz: "*Begim, garchi achchig'lansangiz ham aytishka majburman: sizda vijdon, insof, rahm, va'da, vafo, yaxshilikni bilish, boringchi odamgarchilikdan hech bir gap yo'q emish. Bil'aks siz: hiylakor bir tulki, og'zi qon bir bo'ri, rahmsiz bir jallod, uyatsiz bir yigit!*" Bular o'z suygan yoridan soxta taloq xatini olib, butun borlig'i vayron bo'lgan, qalbi alamga to'lgan o'zbek ayolining xaqiqiy milliy timsoli-Kumushbibining eng achchiq gaplari. Shu tobda ham o'z umr yo'ldoshiga bo'lgan hurmatni saqlagan holda uni sizlamoqda, birorta yerda sen deb ytilgan murojatni yoki ablax, yaramas, razil qabilidagi beodob so'zlarni ham hatto uchratmaymiz. Kumushbibining ushbu so'zlari xaqiqiy sabrli o'zbek ayolining milliy xarakterini belgilaydi, nazarimda. Chunki asarning har bir qaxramani, ularning har bir aytgan so'zlari o'zida xalqimiz mentalitetini aks ettiradi va ular biz uchun milliylikimiz timsollaridir. Bularni taxlil qilar ekanmiz o'zbek milliy xarakterida hurmat deb atalmish meyorning naqadar yuksak darajada ekanligiga yana bir karra guvoh bo'lamiz.

Inglizlarning *give respect, take respect* maqoli o'zbek tilidagi *hurmat qilsang hurmat topasan* maqoliga shaklan to'liq mos keladi. Lekin bu ikki maqolning milliy mental hususiyatlari bir biridan farq qiladi. Bu farq ularning qanday vaziyatlarda va kimlarga nisbatan ko'proq qo'llanilishi bilan bog'liq. Inglizlarda bu maqol ko'pincha biznes kelishuvlarida va karera qiluvchilarning ish beruvchilarga nisbatan o'zaro munosabatlarida qo'llanilar ekan. O'zbeklarda bu maqol oilada, mahallada, jamoatda, kattalar bilan munosabatda qo'llaniladi.

Yuqorida biz o'zbek tilida "siz" so'zining hurmatlash ma'nosida ham qo'llanilishini guvohi bo'lgan edik. Biz taxlil qilayotgan ingliz va arab tillarida ham "siz" so'zining tarjimai bor ammo u hurmat ma'nosida emas balki o'zining to'g'ri ma'nosi, ya'ni ko'plik vazifasida ishlatiladi. Masalan inglizlarda siz yani "you" birlikda ham ko'plikda ham o'zgarmaydi. Bu degani ularda sen va sizning hurmat bilan umuman aloqasi yo'q. Ikkala vaziyatda ham faqatgina "you" qo'llaniladi. Murojat uchun qo'llaniladigan mister va miss kabi yordamchi so'zlar ma'lum bir manoda hurmatlash ma'nosini ko'rsatadi xolos. Xuddi shunday arab tilida ham siz olmoshining tarjimai antum (erkak jinsi) va antunna (ayol jinsi) yani "sizlar" faqatgina ko'plikni ifodalash uchun xizmat qiladi. Hurmatli insonlarni bildirish uchun esa ularning ismlari oldidan darajalarini ko'rsatuvchi *sheyx, xaji, xajiya, duktur, ustaz* yoki oddiygina *sayyid, sayyida* iboralarini qo'llash mumkin. Bulardan shu narsa ravshan bo'ladiki bizning nutqimiz bu bizning maxsus milliy xarakterimiz va mentalitetimizga asoslangan kognitiv ongimiz maxsulidir. Unda mavjud bo'lgan tushunchalar xamisha tilda aks etadi. Chunki ong va til bir biriga chambarchas bo'g'liq bo'lgan zanjirdir. Milliy madaniyat esa ularning o'rtasida bo'lgani holda har ikkisiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli ham boshqa boshqa madaniyat vakillarining ma'lum bir tushunchani tafakkur qilish va uni tilda maxsus ko'rinishda ifoda etishlari ham albatta bir biridan farqli. Bu farq madaniyatlar o'rtasidagi rang barang til birliklarida o'z aksini topadi.

3.2. Ideal inson obrazining til birliklarida ifodasi

Zamonaviy madaniyatshunoslikda yangi sotsio- gumanitar bilimlarning rivoj topishi bilan bir qatorda madaniyat tushunchasi ila bog'liq jarayonlar va ularning o'zaro ta'siri, har bir madaniyatning sotsial yoxud ideal tiplarini ko'rsatish, tarixiy modifikatsiyalar, sotsiomadaniy uslublar haqidagi qarashlar ham o'z yechimini topmoqda. Shu o'rinda aytish mumkinki har bir jamiyatning o'z milliy qiyofasi bo'ladi. Undagi shaxslar esa o'sha milliy qiyofani tashkil etgan elementlardir. Vorobev ularga milliy shaxs deya ta'rif beradi. Individ (individium) lotincha so'z bo'lib, bo'linmas, parchalanmas degan ma'nolarni anglatadi. Individ ajrim, yagona, o'zicha borligini yo'qotmasdan parchalarga bo'lina olmaydi. Bu borada «fard» so'ziga e'tibor qarataylik. «Fard» so'zining bir necha ma'nolari bor. Birinchidan, fard bu yakka, yagona, mujarrad, hamrohsiz demakdir; ikkinchidan, o'zgalarga o'xshamaydigan, benazir ma'nosini bildiradi; uchinchidan, fard bir kishi, bir nafar degan ma'noga ega; to'rtinchidin, fard ajralgan, biron kishi, narsadan ajralgan, uzoq ma'nosiga ega. Qat'iy tarzda aytganda, yuqorida ifodalangan «individ» tushunchasining ta'rif faqat oliy darajadagi hayvonlar, jumladan, insonga nisbatan qabul etiladi, vaholanki, masalan, ba'zi o'simliklarni bo'laklarga bo'lish mumkin va har bir bo'lak mustaqil bo'la oladi. Individuallikning shaxsdan farqi shundaki, individning o'ziga xosligi, takrorlanmasligidadir. Individuallikning bu o'ziga xos ideal yoki sharq mutafakkirlari so'zi bilan aytganda fozil, qadr-qimmatlikka ega, ya'ni individuallikni qadr-qimmati haqiqiy shaxsiyatga bog'liq emas. Shaxsning ma'naviy-axloqiy qadr-qimmati o'zligini saqlab qolishga qaratilgan.

Shaxs «persona» so'zidan olingan bo'lib, lotincha niqob, qiyofa, soxta ko'rinish demakdir. Antik davrning oxirlarida individni shaxs deb ataganlar, zeroki u faqat tabiiy organizm emas, balki insoniy, ijtimoiy mavjudot sifatida namoyon bo'ladi. Shaxs bu axloqiy hodisa bo'lib, biron maqsad bilan o'zga shaxslarga qaratilgan amallarning mazmuni, markazi va yagonaligidir. Shaxs axloqi uning ma'naviyatidagi tarkibiy qism bo'lish bilan bir paytda shu ma'naviyatning

xosilasidir. Axloq inson tafakkuri, aql-zakovatini, butun faoliyatini tizginlab turuvchi hodisadir. Inson aqli qanchalik o'tkir va qudratli bo'lsa ham, uning axloqi tuban bo'lsa, bu kuchli aql va zakovat vayronkor kuchga aylanadi. Va yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki har bir milliy madaniyatda ideal inson qiyofasi mavjud. Bu ideal inson qiyofasi o'z jamiyatining barcha milliy, madaniy, axloqiy, tarbiyaviy va ijobiy xarakter xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi obrazdir. Aynan mana shu ideal inson qiyofasi o'zining jamiyati xaqidagi barcha axborotlarni berishi mumkinki, ularni boshqa hech qanday topib bo'lmaydi. Biz ularning barchasiga til birliklarining qiyosiy madaniy analizi orqali erishamiz. Axir til nafaqat muloqot quroli, balki buyuk kuchga ega bo'lgan o'ziga xos va betakror tafakkur mahsuli ekanligi barchamizga yaxshi ma'lum. Xo'sh ideal inson qiyofasini inglizlar, o'zbeklar va arablar qanday aks ettiradilar? Bu savolga ularning til birliklari taxlili orqali javob va xulosalar olamiz.

Izlanishlar va taxlillar bir biridan farqli bu uch madaniyatning ideal inson qiyofasini yaratishda bir qator o'xshash jixatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Ular yaratgan maqollar va xikmatli iboralarda tasvirlangan tushunchalar (yoki konseptlar) umuminsoniy ezgu tamoyillarga asoslangandir. Lekin ularning ko'proq yoki boshqa ma'noda qadrlanishiga ko'ra ular bir biridan farqlanadi. Barcha madaniyatlarga xos bo'lgan diniy qarashlar, ta'lim- tarbiya, oilaviy aloqalar, do'stlik, qo'shnichilik munosabatlari va boshqalar xalq til birliklarida aks etgan. Ularning zahirida esa milliy xarakterdan kelib chiqqan qadriyatlar uyg'unligi yotadi. O'zbek va arab madaniyatlarida bilamizki, oila barcha munosabatlarning markazi hisoblanadi. Ingliz madaniyatida esa oila muhim ammo kishi uchun eng markaziy ahamiyatga ega tushuncha emas. Shunga ko'ra o'zbeklar va arablarda ideal inson avvalo oilaparvarlik sifatlariga ega inson sifatida tushuniladi. Buning isboti esa shu mavzuga oid juda ko'plab arab va o'zbek maqollarning mavjudligidir. Ingliz milliy xarakterida o'z uyini sevish xususiyati kuchli ammo bu oilaparvarlik hislatidan farq qiladi. Inglizlar *east or west home is best, there is no place like home, my house is my castle, every bird likes its own nest* kabi iboralar orqali uy bu xotirjam dam olish, hordiq chiqarish uchun eng yaxshi joy ekanligiga ishora qiladilar. Bizda esa aksincha uy tushunchasi oila, er-

xotin, bola- chaqa kabi rishtalar bilan bog'lanib ketgan va ularsiz uyni tasavvur eta olmaymiz, shu sababli xalqimizda *bolali uy bozor*, *bolali uyda kulgu bor*, *bolasiz uy zindon* kabi maqollar juda ko'p. Shu bilan bir qatorda, o'zbeklar bolajon xalq bo'lib, ona va bolaga bo'lgan e'tibor ahamiyatga molik: *Ona bilan bola – gul bilan lola*, *Bolali uy – bozor*, *bolasiz uy mozor*, *Bolamning bolasi – qanddek o'rik donasi*. Yana shuni ham e'tirof etish kerakki, “qaynona” va “kelin” obrazlari faqatgina o'zbek maqollariga xosdir. Masalan: *Kelin bo'ldim — qaynonamga yoqmadim*, *qaynona bo'ldim — kelinimga yoqmadim*, *Qaynonaga tosh otsang tosh olasan*, *qaynonaga osh bersang osh olasan*. Uyat, andisha, hayo kabi mavzular ham faqat o'zbek maqollarida uchraydi desak yanglishmaymiz. Isbot uchun: *Andishaning oti qo'rqqoq*, *Sharmsizlik – sharmandalik nishoni*. Shu o'rinda bazi arab iboralarini ham taxlil qilamiz va ularda milliy xarakter hususiyatlari aks etgan ideal inson obrazlarini kuzatamiz.

Arab tilidagi - امشي في جنازة ولا تمشي في جوازة. - *ya'ni (imshi fi janaza va la tamshi fi javaza)* maqoli janozada qatnashmoq to'y belgilashda qatnashmoqan afzalroq degan ma'noni bildiradi. Bunda arablar uchun oila qurish jiddiy masala ekanligi, va buni tashkil etuvchilarga alohida javobgarlik va ma'suliyat yuklanganligiga guvoh bo'lamiz. Demak arablar ehtiyotkorlikni qadrlaydilar va sovchilardan ham shuni talab qiladilar. O'zbek xalqida ham milliy urf odatlarga ko'ra avvalo sovchi oilani tashkil etuvchi inson hisoblanadi. Madaniyatimizda nikohgacha bo'lgan sovchilik, oq o'rar, fotiha kabi jarayonlar ham borki bularning barchasi oila qurishning naqadar etiborga molik voqea ekanidan dalolat beradi. Xalqimizdagi *qizli uy sovchili uy*, *sovchilar ovchilar* kabi iboralar bu insonlarning katta ma'suliyatga ega ekanliklarini ko'rsatadi. Inglizlar ham oila qurishda o'ta ehtiyotkorlar, axir bu bizning tilimizda “umr savdosi” da. Inglizlardagi *marry in haste and repent at leisure* maqoli chuqur o'ylamay turmush qurish keyinchalik pushaymonlik keltirishi mumkinligini anglatadi. Arablardagi yana bir maqol العروسة للعريس والجري للمتاعيس. (*al 'arusa lil 'aris val jari lil mutais*) ya'ni, kelin kuyovla qaytar, mehmonlar hafa qaytar ma'nosidagi maqoli yangi hayot ostonasiga kelinni kuzatayotgan yaqinlariga naqadar og'ir ekanligini ko'rsatadi. O'z jigarbandini boshqa xonadonga kuzatish o'zbeklar uchun ham qiyin va alamli lahzalar hisoblanadi. Bu o'rinda har ikki madaniyatlarda

ham deyarli bir xil holatlarni kuzatyapmiz. Va shu holatdagi inson kechinmalari ham bir biridan farq qilmaydi. O'zbeklarda aynan arablarnikiga o'xshash maqol yo'q ammo kelin kuzatilayotganda unga otasiadn *oq fotiha* olish, *o'sha yerda tub qo'yib palak yozsin* kabi niyatlarni tilash kabilar shu jarayonni ifodalaydi. Yana arablardagi *تضرب القدرة على فمها تطلع البنت لأمها* (*tidrab al-qidra 'ala fummaha, titla al-bint li ummaha*) maqoli o'zbek tilidagi *onasini ko'rib qizini ol* maqoliga aynan mos keladi. Demak onaga xos hususiyatlar albatta uning qizida ham namoyon bo'lar ekan. Arablar bu yerda ham o'zbeklar kabi extiyotkorlikka amal qilishlarini ko'rsatmoqdalar. Albatta bola ota onadan doimo ibrat oladi. Xalqimizda yana shunday gap bor- *qush uyasida ko'rganini qiladi*. Bu iborani arablar o'z tillarida *هاك الشبل من ذاك الأسد* (*hak ash-shiblu min zaka asad*) ya'ni bu sherxoncha ana u sherniki deb talqin qiladilar. Aslida o'xshash vaziyatlarda qo'llaniladigan bir xil ma'nodagi bu ikki iboraning tasviriy ifodalari ko'rib turganingizdek har xil. Bizda qush obrazi, ikkinchisida esa sher obrazi ifodalangan. Gap shundaki, har bir til birligi hoh u maqol bo'lsin yoki ibora avvalo o'z shaklini inson ko'rayotgan atrof muhitdan oladi. Dunyoni biz kundalik sezgilarimiz orqali his etamiz va kuzatamiz. Biz kuzatmagan narsalar esa biz uchun erish tuyuladi. Aynan shu sababli ham tasviriy obrazlar turli hududlarda xilma xildir. Buning asosiy omillari turlicha bolgan geografik sharoit, iqlim, jonli olam va boshqalardir. Bu mavzuga yana alohida to'xtalamiz. Farzandlarning ota onasidan ibrat olishlarini inglizlar quyidagicha ifodalaydilar: *like parents like children, like father like son, like mother like daughter*. Arab tilidagi *الأقربون أولى بالمعروف* (*al aqrabuna u'la bilmaruf*) iborasi do'stlaringdan oldin qarindoshlaring degan ma'noni ifodalaydi. Bu ibora o'z navbatida arablar uchun eng muhimi oila ekanini yana bir karra ifodalaydi. Va yana shuni esdan chiqarmaylikki eng katta yaxshilik bu ota va onaga qilingan yaxshilikdir. Ota onaga hurmat va izzat ko'rsatish esa arab va o'zbek millatiga hos eng oliy burch hisoblanadi. Buning yorqin isboti esa har ikkala tilda ham aynan bir xil bo'lgan *الجنة تحت أقدام الأمهات* (*al jannata aqdamil ummahat*) ya'ni *jannat onalar oyog'i ostidadur* iborasidir. Ko'rib turganingizdek oilaviy tushunchalar borasidagi qarashlarimiz arab madaniy qarashlaridan deyarli farq qilmaydi. Oilani asrab avaylash, unda komil insonlarni

tarbiyalash asriy maqsadlarimizdan biridir. Arablar madaniy xayotini va ananasini aks ettirgan زرع آباؤنا فأكلنا ونزرع ليأكل آباؤنا- (*ziraa abauna faakalna, va nazrau liya'kuli abnauna*) maqoli otalarimiz ekdilar va bizlar yedik, biz ekamiz farzandlarimiz yeydi degan ma'noni ifodalaydi. Bu maqolning majoziy ma'nosi ham bor, lekin asl ko'rinishi oilviy yaxshi an'analarni davom ettirishni targ'ib etadi. O'zbek xalqida ham vaqt o'tib yangi avlod vakillari o'z ota onasi qo'lidan kasb korini, hunarini olganda unga nisbatan *ot o'rnini toy bosar* iborasi qo'llaniladi. Mantiqan, bu ibora arab xalqlarining yuqoridagi iborasining o'zbek tilidgi muqobil ko'rinishidir. Shuningdek, arablar الجار قبل الدار (*al ja'r qoblad d'ar*) ya'ni "hovlidan oldin qo'shni" iborasini ko'p qo'llaydilar. Buning ma'nosi shuki avvalo qo'shning kimligini, uning fe'l atvotini o'rganib keyingina uy sotib olish darkor, aks holda yomon qo'shni uchrab qolishi, oqibatda esa hech narsa kishiga tatimasligi mumkin. Ko'rib turganimizdek arablar qo'shni tanlashda juda ehtiyotkorlar, chunki ular qo'shnichilik xaqqlarini yaxshi biladilar. Ularning bu jihatlari ham o'zbek xalqining milliy xarakteriga mos keladi. Chunki o'zbeklarda qo'ni qo'shnichilik, mahalla ko'y bilan munosabat kabi tushunchalar yaxshi rivoj topgan. Bejizga xalqimiz *uzoqdagi qarindoshdan yaqiningdagi qo'shni yaxshi yoki qo'shning tinch sen tinch* demaydi. Qo'shnichilikning ahamiyati, o'zaro odobi va xurmatini millatimiz kishilari juda yaxshi tushunadilar. *Bir bolaga yetti qo'shni ota ona* maqolini har bir o'zbek kishisi juda yaxshi biladi va unga amal qiladi. Qo'shnichilik ahamiyati hususida esa xalqimiz shunday deydi- *gilam sotsang qo'shningga sot, bir chetida o'zing o'tirasan*. Agar biz oilaviy xayot misolidagi so'z birliklarini taxlil qilishda davom etsak yana ko'plab shunga o'xshash misollarni kltirish mumkin. Barchasidan xulosa shuki o'zbek va arab madaniyatida oilaning ahamiyati, uning jamiyatdagi roli juda ulkan va asosiy diqqtga molik hodisadir. Buning yaqqol isboti sifatida esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan "oila jamiyatning bosh bo'g'inidir" jumlasini keltirishimiz mumkin. Millatimiz va madaniyatimiz vakillari "oilaga e'tibor – kelajakka e'tibor" ekanligini, uning zamirida qanday ma'no bor ekanligini juda yaxshi biladilar, ular o'z xatti xarakatlari va xarakterlarida bu muqaddas maskanga bo'lgan chuqur hurmatni namoyon etishga doimo intiladilar.

Ideal inson qiyofasida butun insoniyat ijobiy hislatlarga ega bolgan obrazni tushunishi shubxasiz albatta. Mana shu hislatlar o'z ustuvorligiga ko'ra turli madaniyatlarda turlicha e'tiborga ega. Masalan, arab xalqlarida ham ezgulik va yaxshi amalar qilishga undovchi ko'plab iboralaru maqollarni kuzatishimiz mumkin. Shulardan biri - الساعي في الخير كفاعله (*as saa'i fil xoyr kafailuhu*) ya'ni, yaxshilikni istovchi kishi uni bajargan kishi bilan barobardir. O'zbeklarda ham mavjud bo'lgan yaxshining niyati ham yaxshi, yomonning tilagi ham yomon maqoli mana shu maqolga mantiqan mos keladi. Biz ga yaxshi ma'lumki o'zbek va arablar ning dini bir ya'ni, doimo yaxshilikka undovchi dini Islomdir. Shu sababli ham bu ikki millatning milliy xarakter hususiyatlarining yana bir o'xshash jixati doimo yaxshilikka bo'lgan intilish, insonlarga ezgulik ulashishdir. Buning misolini esa o'zbek tilining bebaxo durdonalari- maqollarning taxlili orqali kuzatamiz. O'zbek tilida yaxshilik tushunchasi bilan bog'liq keng qo'llaniladigan, kundalik nutqimizdan o'rin egallagan maqol va iboralar quyidagilardir: *Yaxshi niyat- yarim mol, yaxshidan bog' qolar- yomondan dog', yaxshiga yondosh yomondan adash, yaxshi bo'lsang yasharsan nasibangni osharsan, yaxshi hislat –go'zal fazilat, yaxshi bilan yursang yetarsan murdga, yomon bilan yursang qolarsan uyatga, yaxshilik qil, daryoga tashla baliq bilar, baliq bilmasa xoliq bilar, yaxshilik qilmasang yomonlik ham qilma, yaxshi sharofatli, yomon kasofatli, yaxshi el g'amida, yomon o'z g'amida*. Biz bunga oxshash maqollarni yana yuzlab keltirishimiz mumkin, chunki bizning milllatimizda har bir so'zning o'ziyoq yaxshikka xizmat qilishi lozim.

Arablarda ham yaxshilik qilish bilan bog'liq bo'lgan iboralarni ko'plab uchratishimiz mumkun. Ularda ham huddi bizning millatimiz kabi o'zgalarga yaxshilik qilish ham diniy, ham insoniylik tarafdin muhim va jiddiy ish hisoblanadi. Masalan arablarda shunday ibora bor أنقى الناس هم وخلقه , yani uning ma'nosi- kishilarning beg'ubori ularning yaxshilik qiluvchilaridir. Quyidagi hadis ham shu ma'noni ifodalaydi: إن الله تعالى يحب إذا عمل أحدكم عملاً أن يتقنه . Albatta yaxshilikning turlari ko'p. Qilayotgan ishimiz yaxshilik yoki yomonlik ekanligini avvalo o'z aqlimiz, hayotiy xulosalarimizdan kelib chiqqan xolda baxolaymiz. *Bir yaxshini bir yomondan o'rgan* deydi dono xalqimiz. Arablardagi لا يُرحم، لا يُرحم

(*ma la yarham la yurham*) hadisi raxmdillikni ulug'laydi. Uning ma'nosi shuki, raxm qilgan kishi raxmat topadi. Yana Ali ibn Abu Tolib shunday deydi: لا غنى كالعقل، و لا فقر كالجهل، و لاميراث كالأدب"علي بن أبي طالب. Yanikim, aql kabi boylik yo'q, aqlsizlikgan ortiq baxtsizlik yo'q va yaxshi hislatlarga yetguvchi xazina yo'q. Ingizlar ham yaxshilikni ulug'lab *a good deed is never lost* deydilar. *Manners make the man* iborasi ham kishining xayotda asl inson bo'lishi uning yaxshi hislatlariga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Bulardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki yaxshilik butun insoniyat uchun umumiy bo'lgan ijobiy voqelikdir. Aslida hayot ezgulik va yovuzlik, oq va qora kabi qarama qarshi tushunchalar asosiga qurilgan. Insonlarning tilida esa bu tushunchalarga bo'lgan munosabatning aksini ko'ramiz. Tafakkur qilish jarayonida yaxshilikning doimo g'olib chiqishini, yomonlikning esa umri qisqa ekanini, uning oqibati faqatgina afsus nadomat bo'lishini anglaymiz. Bizning ota bobolarimiz ham doimo o'z farzandlariga "*qo'lingdan kelganicha yaxshilik qil, agar yaxshilik qila olmasang yomonlik ham qilma*" deya uqtirib keladilar. Demak ideal inson qiyofasi barcca millatlar va ularning madaniyatida deyarli bir biridan farq qilmaydi, yani u umuminsoniy xarakter hislatlariga ega bo'lmog'i lozim. Bejizga barcha xalqlarda ertaklar yaxshilik bilan tugamaydi, chunki butun insoniyat faqat yaxshilikni istaydi. Inglizlar aytganidek *a good beginning makes a good ending*, ya'ni yaxshi muqdimam yaxshi yakun topadi. Aslida mana shu barcha narsaning asosini tashkil etadi. Shuning uchun ham yaxshilik konseptinning barcha milliy madaniy hususiyatlari faqatgina ijobiy voqeliklarni o'zida mujassam etadi.

3.3. Tabiiy geografik muhitning milliy xarakterga ta'siri

Milliy xarakter hususiyatlar shakllanishida tabiiy geografik muhit birlamchi omillardan biri hisoblanadi. Insonning intellektual faoliyati ham, oddiy xatti-xarakatlari ham milliy madaniyat ko'zgusida aks etadi va ushbu madaniyat "nazorat"ida bo'ladi. Xar qanday madaniyatning shakllanishida esa eng avvalo atrof muhiting ta'siri muhim o'rin egallaydi. Turli millatlar madaniyati bir biridab dastlabki o'rinda voqelikni moddiy va ma'naviy o'zlashtirishdagi farqi jihatdan ajralib turadi. Bu farqni esa eng avvalo o'sha millatning tilida, til birliklarida va badiiy matnlarida ko'rishimiz mumkin. Darhaqiqat, har bir shaxsning va u tarkib topgan jamiyatning muloqot malakasi ham ma'lum madaniyat hududida, madaniy muhitda shakl topib faollashadi. Bu madaniy muhitni yaratuvchi va uni chegaralab turuvchi vosita esa geografik shart sharoitdir. Inson har qanday voqea hodisani, predmetni idrok etish, uning haqida ma'lum tushunchaga ega bo'lishda va uni nomlashda beixtiyor o'zini o'rab turgan tabiiy muhitga suyanadi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, bizni o'rab turgan borliq va voqeliklar o'z o'zidan lisoniy qobiliyatimizda namoyon bo'ladi. Sodda qilib aytadigan bo'lsak biz ko'rib turadigan va sezgi a'zolarimiz orqali his qiladigan tabiiy jarayonlar tilimizda nomlanadigan lisoniy birliklarning kognitiv bazasini tashkil etadi. Axir biz har kuni ko'radigan va bizga tanish bo'lgan hodisalarimizninigina nomlaymiz va ularni semantik analizlarda qo'llaymiz. Bizga notanish muhitlar, masalan uzoq masofalarga cho'zilib ketgan savannalaru, unda yashovchi noyob hayvonlar yoki aksincha yer ostida qavatma qavat erimay yotadigan antarktida muzliklariyu va unda hayot kechiradigan noyob jonzotlar tabiiyki bizning kogniyiv ongimizda lisoniy omil bo'lib xizmat qila olmaydi. Shunga ko'ra yagona voqelik haqidagi tasavvurlarimiz ham mos kelmaydi. V Gumboldt turli millat va madaniyat vakillarining voqelik haqidagi tasavvuri mos kelmasligini isbotlamoqchi bo'ldi. "Turli tillar – yagona bir predmetni turlicha nomlanishidan ko'ra, ushbu predmetni turlicha ko'rish, idrok etishdir" (Gumboldt 1984: 9) degan edi u. Voqelikni turlicha ko'rishning asosi esa turli geografik muhitlar

nisbiyligi bilan va kognitiv ongimizda u yaratgan tabiiy baza bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayondir.

Biz taxlil qilayotgan tillar ham tabiiyki turli nomutanosib geografik muhitlarda joylashgan jamiyatlarga tegishlidir. Ular ifoda etgan til birliklarida esa o'z madaniyatlariga hos relief ya'ni yer tuzilishi, iqlim sharoitlari, o'simlik va hayvonot dunyosi bevosita aks etadi. Bu omil xalqlarning milliy xarakteriga ham singib ketadiki, natijada ularning tillarida ifodalangan qadriyatlar timsollari bir biridan yaqqol farqlanadi. Madaniy muhitning bir bo'lagi bo'lgan geografik muhitning roli tillarni va milliy xarakterni taxlil qilishda o'ta ahamiyatlidir.

Arab xalqlari issiq va quruq iqlimga ega bo'lgan tabiiy geografik muhitda joylashgan bo'lsa, ingliz xalqlari joylashgan hudud ko'proq sovuq va namligi yuqoriligi bilan farqlanadi. Bizning xalqimiz istiqomat qiladigan maskan esa mo'tadil iqlimga va shunga moslashgan tabiat in'omlariga egadir. Arab xalqlari doimo jaziramadan aziyat chekkanliklari sababli ular uchun sovuq ob havo kutilgan va xursandchilik kayfiyatiga sabab bo'ladigan hodisadir. Shu sababli ham ularda "sovuq" tushunchasi va u aks etgan til birliklari pozitiv konnotatsiyaga ega va u ko'tarinki kayfiyat, quvonchli hodisalarni ifodalashda xizmat qiladi. Masalan, arab xalq iborasi خَيْرُ الصَّدْرِ يَتْلُج (xabarun yuslij as-sodr) iborasining o'zbekchaga to'g'ridan to'g'ri tarjimasi "qalbni muzlatuvchi yangilik" deganidir. Bu iborani eshitgan xalqimiz unung zamirida qandaydir yomonlik yoki falokat yotibdi deb o'ylashi muqarrar. Chunki bizning milliy xarakterimiz doimo yaxshilik va ijobiylikni iliqlik, issiqlik bilan ifodalanishiga moslashgan. Bu moslashuv geografik sharoitimizning iliq iqlim shroitidan kelib chiqqan. Arablarda esa yuqoridagi ibora ijobiy mazmunga ega va u xursandchilik bilan bog'liq xabarlarini ifodalaydi. O'zbek tilida uning muqobili sifatida qalblarni iliqlikka to'ldirmoq iborasini keltirish mumkin. Xalqimida mavjud bo'lgan iliq gap, iliq munosabat, qaynoq mexr kabi iboralar ham milliy xarakterimizning ijobiy holatlarini ko'rsatadi. Ingliz xalqlarida ham sovuq emas balki iliq tushunchasi pozitiv konnotatsiyaga egaligi bilan xarakterlidir. *He was given a warm welcome* va *he is a warm-hearted, i.e. kind, person* yani u bizni iliq qarshiladi va u iliq qalbli inson gaplari misolida buni kuzatishimiz mumkin. Bularning barchasi

geografik muhitning ta'siri inson his tuyg'ularida, kayfiyatida, xarakteri va tilida bevosita namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Shuningdek geografik muhit va tabiiy hodisalar maqollarda ramziy obraz sifatida keng qo'llaniladi. Bazi bir ramziy obrazlar esa o'sha xalqning o'zigagina hos bo'ladi. Chunki boshqa xalqlar bu obraz yoki voqelikni kuzatmagan bo'ladilar. Masalan arab xalq maqollari ko'p taraflama qumli sahro, u bilan bog'liq bo'lgan sarob, chodir, ilon, chayon, tuya, piramida kabi tushunchalar va ular ifoda etadigan jasurlik, shon-sharaf kabi konseptlar bilan bog'liq. Bular tabiiy geografik muhit ta'sirida tilda qaror topgan badiiy obrazlardir. Ana shunday milliy konseptlarni o'zida aks ettirgan bir qancha arab maqollarning o'zbek tilidagi muqobil variantlarini ko'rib chiqamiz: 1. "Chodir ichidagi bitta dushmandan uning tashqarisidagi mingtasi afzalroq"(arab) – "Ming yovdan bir dushman yomon"(o'zb). 2. "Sarobni ko'rib, suvni to'kma"(arab) – "To'ydan oldin nog'ora chalma" (o'zb) 3. "Qafasdagi sherdan ozod it yaxshiroq" (arab) – "Qafasdagi bulbuldan vayronadagi boyqush yaxshi" (o'zb) 4. "Ilon zaxrini ko'rgan yerdagi arqondan ham qo'rqib qoladi" (arab) – "Og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi" 5. "Odamlar vaqtdan qo'rqadi, vaqt esa piramidalaridan" (arab) – "Ko'z qo'rqoq, qo'l botir" (o'zb) 6. "Bir teshikda yashaydigan ikki chayon bir uyda yashaydigan ikki opa singildan ahilroq" (arab) – "Ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamas" (o'zb). Ko'rib turganimizdek arab xalqlari maqollarida o'zbek xalqiga biroz erish tuyuladigan ifoda vositalari ko'zga tashlanmoqda, ilmiy nuqtai nazardan olib qarasak esa bu holni turli milliy madaniy konseptlarning o'sha xalq lingvomadaniyatida aks etishi deyish mumkin. Shuningdek arablar jazirma sahro hududlarini keng egallaganliklari bois ularning til birliklarida chayon obrazi ko'p uchraydi. Masalan, في النصح لسع العقارب, ya'ni maslahat ham chayondek chaqishi mumkin maqolidagi chayon obrazi xaqiqatning achchiq bo'lishiga ishora qilmoqda. O'zbek xalqida chayon obrazi qo'llanilmaydi, chunki bu so'z bizda yufermizm yani aytish noo'rin bo'lgan so'zdir. Bu milliy stereotiplarimiz bilan bog'liq, ya'ni chayon nomini aytish uning honadonda paydo bo'lishiga olib keladi deb hisoblanadi. Shu sababli ham uning o'rniga oti yo'q iborasi qo'llaniladi. Arablarning chayon bilan bog'liq yana bir maqoli: لكل صغير حلو إلا صغير العقرب, uning ma'nosi yosh bo'lgan barcha narsa chiroyli,

faqat yosh chayon emas deganidir. Ko'rib turganimizdek bizni o'rab turgan hayvonot dunyosi ham bizning til obrazlarimizda albatta o'z aksini ko'rsatar ekan. Bu hodisaning amalda namoyon bo'lishini Afrika xalq maqollarini tahlil qilish jarayonida ham kuzatish mumkin. Ma'lumki Afrika o'zining yovvoyi tabiati va landshafti, o'simlik va hayvonot dunyosining xilma xilligi bilan ajralib turadi. Quyidagi maqollarda esa bu tushunchalar bevosita o'z ifodasini topadi: "Eng yaxshi daraxtlar eng baland tepaliklarda o'sadi", "Xarakat qilib maymun daraxtdan sakrashni o'rganar", "Xudoni arslonni yaratgani uchun ayblama, balki unga qanot bermagani uchun tashakkur ayt", "Fil ozg'in bo'lsa ham baribir o'rmon xukmdori bo'lib qolaveradi", "Xar bir yirtqich o'z uyida o'kirar", "Echkilar leopard to'dasida yasholmas", "Boshida kokos chaqsang, qaytib oyoqqa turmas", "O'rmonda fil bo'lmasa buyvol o'zini podshoh sanar", "Suvda timsoh og'zidan omon chiqsang, albatta yo'lingda qopllonni uchratasan", "Kichkina kaltakesakda timsoh bo'lishdek katta orzu bor", "Agar poda birlashsa sherga nasiba yo'q". Ko'rib turganimizdek Afrika xalqlari yaratgan maqollarda ham barchaga ma'lum bo'lgan ezgu g'oyalar, xarakatchanlik, sabr-qanoat, xamjihatlik, tirishqoqlik kabi fazilatlar ulug'lanmoqda. Shuningdek ko'p xalqlar folklorida uchraydigan vatan tuyg'usi tushunchasi, uni qadrlashni targ'ib qilish va bunga o'rgatish masalalari ham e'tibordan chetda qolmagan. Agar maqolarni tahlil qilishda davom etsak, ramziy obraz sifatida ko'proq hayvonlar, o'simliklar qo'llanilishini kuzatamiz. Har bir xalq o'z kundalik hayotida duch keluvchi jonzotlardan obraz yaratadi. Arab maqoli التكرار يعلم الحمار (*at takrar yuallimul humar*) da ramziy obraz sifatida eshak olingan va unda takrorlash xatto eshakni ham o'rgatishi mumkin deyilmoqda. Inglizlar bu maqolni *Practice makes perfect* deyilar. Arablarda yana bir maqol ularning hayvonot dunyosi bilan bog'langan, ya'ni القرد في عين أمه غزال (*al qirdu fi ayni ummihi g'azalun*). Uning ma'nosi onasining ko'zida maymun g'izoldir. Bizda ham huddi shu ma'noni ifodalovchi maqol bor, ammo u maymun, g'izol so'zlari bilan ifodalanmagan, chunki biz maymunlarni faqatgina hayvonot bog'ida yoki televizorda ko'rishimiz mumkin. Bu hayvonlar bizning kognitiv ongimizda obraz yaratishda birlamchi emas. Xalqimizda aynan shu ma'nodagi *Qo'ng'iz bolasini oppog'im der, tipratikan*

yumshog'im maqoli esa o'z madaniy muhitimizga moslashgan maqol ko'rinishidir. Inglizlarda esa aynan shu manodagi iborada g'oz va oqqush obrazlari keltiriladi, ya'ni *every mother thinks her own gosling a swan*. O'zbek xalqida hayvonlar obrazi orqali turli insoniy qadriyatlarni ulug'lovchi maqollar juda ko'p. Masalan, *Bedana tezotar bo'lsa, o'z boshini o'zi yer, Bedananing «vit» degani — qochgani, Bo'ri bo'ronda quturar, Zag'izg'on sog'ligidan o'lmas, suqligidan o'lar, Zag'izg'on chaqib to'q bo'lmas, Zag'cha sigirdan qo'rqmas, Itdan suyak ortmas, Mushukdan — bez, Ot — yigitning yo'ldoshi, Ot — yigitning qanoti, Toy otga yetkazar, Ot — murodga, Toy otga ergashar, Qo'y — serkaga, Tog' bo'risiz bo'lmas, To'qay arslonsiz bo'lmas, Tog'iga qarab quloni, Suviga qarab — iloni, Chopqir ot — o'tkir pichoq, Cho'pon bo'lsang, qo'yni boq, moyi toshsin choradan, It boqqanda sirtlon boq, qo'y oldirmas qo'radan, Echki bo'lsa, qo'yga yo'l ochilar. Echki qo'y bo'lmas, Eshak — toy, Eshak minganning oyog'i tinmas, Yuvvosh otning tepkisi qattiq, Qarg'a keldi — qish keldi* kabi maqollar o'zbek xalqining milliy madaniy hayotini o'zida yaqqol aks ettirib turibdi. Ingliz xalqida ham hayvonlar obrazi orqali ifodalangan maqollar juda ko'p. Ular asosan ot (inglizlar ot sportini juda qadrlaydilar), kuchuk, mushuk, shuningdek turli qushlar nomlari bilan bog'liq. Masalan, *swan song* (san'atkorning so'nggi ijrosi), *night owl* (tunda serharakat odam), *wild goose chase* (keraksiz buyum), *kill the goose that lays the golden eggs* (o'z foyda manbaini yo'q qilish), *goose bumps* (qo'rquv hissini sezmoq), *ugly duckling* (irkit o'rdakcha), *lovely weather for ducks* (yomg'irli ob- havo), *lame duck* (kuchsiz, chorasiz kishi), *eagle eye* (o'tkir), *birds and bees* (hayot dalillari), *a wolf in sheep's clothing* (o'zini soddamon ko'rsatuvchi ayyor kishi), *black sheep* (oilasiga dog' olib kelgan kishi), *rat race* (ish joyi uchun musoboqalashmoq), *when the cats away the mice will play* (sulaymon o'ldi devlar qutuldi), *play cat and mouse* (mushuk sichqon o'ynamoq), *work like a horse* (juda qattiq ishlamoq), *straight from horse's mouth* (aniq ishonchli manbadan eshitmoq), *put the cart before the horse* (noto'g'ri tarzda harakat qilmoq), *hold one's horses* (o'zini jilovlab turmoq), *dog and pony show* (tomosha ko'rsatmoq), *dark horse* (oz moz tanilgan kishi), *top dog* (jamiyatdagi o'ta ahamiyatli kishi), *to rain cats and dogs* (juda qattiq yomg'ir yog'moq), *a sacred cow* (o'ta

ezozlangan kishi), *take the bull by the horns* (ahamiyatli qarorni qabul qilishga kirishmoq), *a cash cow* (ko'p daromad ko'ruvchi tovar yoki firma), *white elephant* (hech qanday foyda bermaydigan ammo narxi qimmat bo'lgan narsa), *lion's share* (biror narsaning katta bo'lagi), *eager beaver* (o'z ishiga masuliyatli kishi) kabi hayvon nomlari bilan bog'liq bir qator ingliz iborolari taxlili orqali biz ingliz milliy xarakterining yana bir qator hususiyatlarini kuzatishimiz mumkin. Inglizlar tunda ko'proq serharakat kimsalarni *night owl* desalar, o'zbek xalqi ham bundaylarga boyo'g'li deb ta'rif beradi. Demak, bunday hususiyatli kishilar ikkala madaniyat vakillari orasida uchrab turadi, shu sababli ham ularga aynan tunda izg'ib yuruvchi qushning nomi ramziy obraz sifatida qo'llanilmoqda. Inglizlarda ot va qo'y hayvonlari bilan bog'liq iboralar talaygina. Buning sababi esa Inglizlarning mentalitetida ularga bo'lgan hurmatning kuchliligidir. Ma'lumki Inglizlar ot sportining haqiqiy ishqibozlari hisoblanadi, shu sababli ham bu jonzotni ko'p iboralarida xarakter hususiyatlari ifodalovchisi sifatida qo'laydilar. Qo'y hayvoning Inglizlar uchun ahamiyatliligi esa qadimdan oq rivojlangan jun sanoati va undagi hom ashyo sifatida qo'y junidan tayyorlangan mahsulotlar ishlab chiqarishning keng rivoj topganligidadir. Ayniqsa Inglizlar oq qo'yni qadrlaganlar, chunki uning junini istalgan ranglarga bo'yash mumkin edi. Qora qo'yni esa ular istamaganlar, shu sababli ham u *black sheep* iborasida salbiy obrazda qo'llaniladi. O'zbeklarda ham oilasini isnodga qo'yib uyaltirga farzandlarni hayvonga qiyoslab yaratilgan ibora bor, bu *tirraqi buzoq* iborasidir. Yani *bir tirraqi buzoq butun podani bulg'aydi* iborasida o'zbeklar huddi Inglizlarning *black sheep* iborasida tasvirlangan qiyofani ko'rsatmoqdalar. Demak bir hil salbiy qiyofani ifodalash uchun bu har ikkala xalq ham hayvon ifodasidan foydalanmoqda. Inglizlarda bu qo'y bo'lsa, o'zbeklarda esa buzoqdir. *Work like a horse* iborasida inglizlar ishchanlikka urg'u bersalar, o'zbeklar shunga o'xshash *itdek ishlamoq* iborasida haddan ziyoda charchashga urg'u beradilar. Bu ikki ibora shaklan bir biriga yaqin ko'rinsada ular bir biridan madaniy hususiyatlariga ko'ra farq qiladi. Inglizlarda bu ibora qo'llangan shaxs o'z ixtiyoriga ko'ra ishlashiga ishora qilinsa, o'zbek xalqida esa aksincha zaruriyat yoki taziyy ostida ishlatilishga nisbatan ko'proq qo'llaniladi. Inglizlardagi yana bir ibora *to rain*

cats and dogs iborasini olaylik. Bu ibora sof Ingliz xarakteriga muvofiq kelishi bilan xarakterlidir. Chunki biz O'zbek xalqida ham, Arablarda ham unga mos keluvchi birorta iborani ko'rmaymiz. Arablarda qish sovuq kelishi *yomg'irli qish* iborasi bilan tasvirlanadi. Ya'ni ularda qish faslida faqat yomg'ir yog'ishi kuzatilishi mumkin. Agar yog'ingarchilik ko'p bo'lsa bu qishning ular uchun qattiq kelgani hisoblanadi. O'zbek xalqida esa ulardan farqli ravishda *qishning qattiq kelishi* iborasi mavjudki, bu bizning iqlimimizga mos hususiyatlarni, yani qish faslidagi qaxraton sovuq, tinimsiz qor yog'ishi kabi holatlarni xarakterlaydi. Shu sababli ham sovuq tushunchasi o'zbek milliy xarakteridagi salbiy hususiyatlarni ifodalovchi timsollar bilan bog'liq. Buni biz metafora usuli yordamida yaratilgan *muzlagan yurak, sovuq bashara, qalbi muz, sovuq ko'rinish* kabi iboralar misolida ko'rishimiz mumkin. Endi Arab xalqining miliy madaniy sharoitidan kelib chiqqan sof Arab xarakteriga ega iboralarni ko'rib chiqamiz. Bulardan biri *تحت العمة قرد* (*taxtal amma qird*) iborasidir. Uning tarjimasini imom bosh kiyimi ostidagi maymun bo'lib, u tashqi ko'rinishidan o'zini xudojo'y ko'rsatib, aslida qator illatlarga ega kishilarga nisbatan ishlatiladi. Yana bir ularga xos *ظَرَطَ الإمام، خَرِيُوا المصلين* (*zorratil imam xiryul musolliyn*) iborasi imom xato qildi va unga ergashuvchilar buni ko'paytirdilar degan tarjimani beradi. Ya'ni agar yetakchi birorta kamchilikka ega bo'lsa unga ergashganlar ham bu kamchilikni takrorlaydilar. *دِيل الْكَلْبِ عَمْرُهُ مَايْتَعَدَل* (*deilik kalb omru mayetadal*) ya'ni kuchukning dumi hech qachon to'g'ri bo'lmaydi iborasida Arablar insondagi xarakterni, uning xulq atvorini o'zgartirish juda qiyin masala ekanligiga ishora qiladilar. Inglizlardagi *a leopard doesn't change it's spots* iborasi bu iboraga to'liq mos keladi. Arablardagi madaniy hayvonlar obrazi orqali kelib chiqqan yana bir ibora *إن سرق جمل، وإن عشقت، اعشق قمر* (*in sarqot isroq jamal, va in ashqot ashqo qomar*) yani, agar o'g'irlasang tuyani o'g'irla va agar sevsang oyni sev ko'rinishidagi maqoli arablar milliy xarakteridagi tirishqoqlik, oxirigacha kurashish kabi hislatlarga ishora qiladi. O'zbek tilidagi uning muqobili sifatida *osilsang baland dorga osil* iborasini keltirish mumkin, ammo bu ibora o'zbek milliy xarakterini tasviriy bo'lagi emas balki ayrim shaxslarninggina maqsadlari uchun tinimsiz urinishlarini ifodalaydi. Ana bir tuyay obrazi aks etgan arab maqoli: *اللي يسرق البيضة*

يسرق الجمل , yani uning ma'nosi tuxum o'g'irlagan keyin tuya o'g'irlydi demakdir. Bu maqolning zamirida o'g'rilik qilgan kishining niyati buzilib bo'lganiga ishora bor. Bilamizki diniy nuqtai nazardan ham o'g'irlik og'ir gunoh hisoblanadi, shu sababli ham arablar bu ishni sodir etgan kishini ayovsiz jazolaydilar. Arablarning madaniy o'simliklari ifodasi aks etgan iboralariga عقل والاعقل نذله طول الطول (at tuval tuval nahla va al aqal aqal sohla) ya'ni uning bo'yi palma daraxtidek, aqli esa echkinidek iborasini keltirish mumkin. Bu iboradagi palma ramziy obrazi bo'yi baland insonlarni tasvirlashga xizmat qilmoqda, echki obrazi esa farosatsizlikni ifodalaydi. O'zbeklarda ham shunga o'xshash *sochi uzun aqli kalta*, yoki *tovuqmiya* kabi iboralar mavjud va ular ham ayrim insonlardagi kamchiliklarga ishora qiladi. Yana bir misol sifatida دلو الحامض من به تشدیل ال بال طولة (*tulat al bal betshiyl minal hamad helo*) ya'ni sabr toqat limondan shakarni chiqarib oladi iborasini keltirish mumkin. Bu iborada qo'llangan limon obrazi aslida qiyinchiliklarga ishora qiladi. Arablar orasida keng tarqalgan bu ibora arablarning sabr qanoat hislatlarini ulug'lashlarini ko'rsatadi. Buni arab xalqining الصبر مفتاح الفرج yani sabr toqat keladigan qiyinchiliklarni yengish kalitidir ma'nosidagi maqoli ham tasdiqlaydi. Bu jihatdan ularni O'zbek xalqiga qiyoslash mumkin. Chunki bizning xalqimiz ham azal azaldan o'z farzandlarini sabr qanoatga undab kelgan. Bularning tagida albatta diniy bilimlarimiz ham yotadi. Xalqimizning so'z durdonalari orasida sabr va sabrsizlik hislatlariga urg'u berib, ularning oqibatini ko'rsatuvchi maqolu iboralar bisyor. Shulardan ayrim mashhurlarini keltirib o'tsam: *Sabrliga yog'lik osh, sabrsizga osh ham tosh, Kamoli imon – sabr, Sabr achchiq mevasi shirin, Sabr tagi sari oltin, sabr bilan chiqar oting, Sabr qilsang g'o'radin holvo bitar, sabrsiz o'z oyog'idan yiqar, sabrli ming yashar, sabrsiz oz yashar, toqatliga tog'lar egar boshini, betoqatning itlar yeyar oshini, qanoat qilsang qorning to'yar, beqanoat otini so'yar, sabr tagi raxmon, shoshgan ishi shayton, Sabr –umr xazinasini va boshqalar. Sabrga undovchi bu xalq maqollari milly mentalitetimizning yana bir ko'rinishini o'zida aks ettirmoqda. Inglizlar ham sabr tushunchasi ya'ni *patience* ni qadrlaydilar. Buni biz *patience is a plaster for all sores, an oak is not felled at one stroke, all things are difficult before they are easy* misollari yordamida tushunib olishimiz mumkin.*

Ko'rib turganimizdek, insonlar uchun ijobiy xarakterga ega bo'lgan g'oyalar butun insoniyat ahliga birdek tanish va tushunarli, ammo uni lisoniy vositalar yordamida ifoda etish usullari turli-tuman va ko'proq o'sha jamiyatga ma'lum bo'lgan yashash sharoiti, yasash muhiti, qisqacha qilib aytganda ularni ajralmas qismi bo'lgan madaniyati bilan bog'liq ekan. Zero til va ong madaniyatdan holi holda mavjud bo'la olmaydi. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, lisoniy ong kognitiv ong bilan chambarchas bo'g'liq va kognitiv ong ma'lum milliy konseptlarni o'zida mujassam ettirish hususiyatiga ko'ra boshqalaridan farq qiladi. Va bu holat til birliklarida o'z aksini ko'rsatadi.

3.4. An'ana va urf odatlarning milliy xarakterni belgilashdagi ahamiyati

Har qanday xalqning urf-odatlarini bilay desang,
avvalo uning tilini bilishga urin.

Pifagor

Ma'lumki, har qanday milliy xarakter o'z shakllanish jarayonida faqat o'z davrdagi ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida bo'lib qolmasdan, shuningdek, tarixiy tajribalar, ajdodlar tomonidan yaratilgan, to'plangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy meroslar, milliy qadriyatlar ta'siri ostida ham kengayib boradi. Bunda ayniqsa, har bir xalqqa xos bo'lgan milliy urf-odat va an'analarning roli kattadir. Shunday ekan lingvokulturologiyaning asosiy o'rganish ob'ektlaridan bo'lgan tilda aks etuvchi urf-odat, an'ana, udum va turli marosimlarni atroflicha o'rganish, ularni vujudga kelishi, namoyon bo'lishi, saqlanishi va o'zgaruvchanligi kabi qonuniyatlarini ochib berish ham nazariy, ham amaliy jihatdan ahamiyatga molikdir.

Har bir davrning, har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik sharoitiga mos bo'lib tushadigan va uni o'zida aks ettiradigan urf-odat va an'analari bo'ladi. Odamzot ongli hayot kechira boshlagandan buyon vujudga kelgan urf-odatu marosimlar, udum va an'nalarni xisoblab chiqish qiyin. Milliy urf-odat va an'analarda butun bir xalqning ijtimoiy ehtiyojlari, ahloq normalari, manfaatlari, amaliy tajribalari va tarixiy yashash sharoitlari o'ziga xos ravishda mujassamlangan bo'ladi. Ular xalqning faoliyati jarayonida tug'iladi. Har bir xalq butun tarixi davomida yashash sharoitining xarakteri va xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda kishilar o'rtasidagi munosabatlarning ma'lum norma va yo'l-yo'riqlarini yaratadi. Bu norma va yo'l - yo'riqlar avloddan-avlodga o'tishi bilan takrorlanib, urf-odat va an'analarga aylanib qoladi. Shakllangan urf-odat va an'analalar shahsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishida shahsning hulq-atvorlarini ijtimoiy jixatdan belgilovchi, boshqarib turuvchi va shakllantiruvchi vazifalarni bajaradi. Avvalo "odat" (arabcha an'ana) xalqlarda ichki munosabatlarni tartibga soluvchi normalar va an'analalar majmuasi. Islom dinini qabul qilgan xalqlarda odat shariat qonunlari bilan bir qatorda

jamoa hayotini tartibga solishda rol o'ynagan. Odat ko'pincha iqtisodiy va ahloqiy hayotning turli tomonlariga, oila va turmush tarziga taalluqli bo'ladi. Odat islomga qadar mavjud bo'lgan an'analardan kelib chiqqanligi sababli islom olamining turli davlatlarida turlicha ko'rinishga egadir. Albatta dunyoni ulkan bir kema desak, shu kemaning yuzlab nuqtalarida musulmonlar yashaydilar. Ammo ularning urf odatlarida farq bor. Nafaqat bitta jumhuriyatda, hatto bitta tumanda yashab, u qishloqning urf odati bu qishloqnikidan farq qiladi. Va biz shu yerda o'sha qishloqlar aholisining etnik tarkibi, kelib chiqishi, o'ziga hos til shevalari bilan hisoblashmay ilojimiz yo'q. Demakki til va madaniyatni aslo bir biridan ajratish mumkin emas.

Qaysi bir urf-odat va an'anani, udum yoki marosimni ularning kelib chiqish sabablarini o'rganmasdan turib qaraydigan bo'lsak, ular bir qarashda, bemani, bexuda bo'lib ko'rinadi. Aslida esa ularning barchasi kelib chiqishi bo'yicha xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy faoliyati natijasida vujudga kelgan va ularning ma'lum moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilgan.

Urf-odat va an'analar sinonim so'zlar sifatida ishlatilsa ham aslida bu terminlar, tushunchalar o'rtasida faqat terminologik tafovut bo'lib qolmasdan, yana ma'no jihatdan ham farq bordir. Urf-odatlar ko'p hollarda oilaviy, maishiy soxalar bilan bog'langan bo'ladi va unda ahloqiy, diniy va huquq normalari to'la o'z aksini topadi.

An'analar esa ulardan farqli ravishda ijtimoiy hayotning hamma soxalarida mavjud bo'lish bilan birgalikda, yana ishlab chiqarish jarayonini ham qamrab oladi. An'ananada kishilarning narsa va buyumlarga, tabiatga bo'lgan munosabatlari ifodalanadi. Ma'lumki, fanda, san'at va adabiyotda, armiya va oliy o'quv yurtlarida, sport va ishlab chiqarish jamoalarida urf-odat bo'lmaydi, balki an'analar mavjud. Masalan, armiyaga yangi borgan soldatning qasamyod qabul qilishi, oliy o'quv yurtiga kirgan yoshlarni talabalar safiga qabul qilish tantanalari, yirik sport musobaqalarida g'olib sportchi sha'niga mamlakat bayrog'ini ko'tarilishi va madxiyasini yangrashi - bular an'nalar xisoblanadi. Bundan tashqari an'ananing ta'sir doirasi nisbatan keng bo'lib, bitta an'ana bir necha urf-odat, udum va marosimlarni o'zida qamrab olgan bo'lishi mumkin. Misol tariqasida xalqimizda mavjud bo'lgan

mexmondo'stlikni olib qaraydigan bo'lsak, mexmondo'stlik u yoki bu darajada har bir xalq va millatga xos bo'lgan xususiyatdir. Lekin bu narsa yuqorida ko'rib o'tganimizdek, o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar ta'siri ostida, oilaviy-maishiy hayotdagi munosabatlar natijasida o'zbek xalqida o'ziga xos bir yo'sinda namoyon bo'ladi, bu o'zbek xalqining milliy xususiyatiga, milliy an'anaga aylanib qolgan. Mana shu mexmondo'stlik an'anasi bir necha urf-odatlar, udumlar orqali to'la namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek oilalarida mexmon har doim ochiq chexra va shirin kalom bilan kutib olinadi. Honadondagi eng yahshi va noyob narsalar (bunday narsalar doimo "mexmon uchun" deb saqlanadi) mexmon oldiga qo'yiladi. Mehmon honadonga kirib kelishi bilan mezbon ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib, *"hush kelibsiz"*, deb kutib olinadi va xurmatli zot sifatida eng yuqori joyga o'tqaziladi. Qo'ni-qo'shnilar chaqirilib mexmonga hamsuxbat va ulfat qilinadi. Ovqat ham birinchi bo'lib, yoshidan qat'iy nazar mexmonga tortiladi. Mexmon boshlamaguncha, oilaning birorta a'zosi birinchi bo'lib taomga qo'l urmaydi. O'tirishdagi birinchi so'z ham mexmonga beriladi, uning so'ziga diqqat bilan quloq solinadi. Unga e'tiroz bildirish, gap qaytarish, katta ayb xisoblanadi. Mexmon oldida oila a'zolari bir-birlari bilan xushmuomalada bo'lishlari, xatto *"mushugini ham pisht"*, demasligi kerak. Mexmon kuzatilayotganda kutib olish chog'idagidek, ikki qo'l ko'ksida bo'lib, *"hush ko'rdik"*, *"yana kelib turing"*, deb xayr-ma'zur qilinadi. Kaykovusning "Qobusnoma" sida ta'kidlanganidek: *"Agar mehmon har nechuk qattiq so'z aytsa, unga qattiq so'z demagil, balki xurmatini saqlagil"*. Shu o'rinda "O'tgan kunlar" romanidan bir lavha:

" - Bu kunga bir mehmon aytgan edim, cho'ringni chaqirib mexmonxonani tozalat. Anavi yangi qoplangan ko'rpalariningni ber, tanchaga o'shani yopsin. Katta gilamni ham chiqar, uyingda mevalaring bor edimi?"

- Bor..

- Bor bo'lsa yaxshi. Bir ozdan so'ng et olib kirgazaman, varaqi pishirib qo'yingiz!"

Xalqimiz *mehmon otangdek ulug'* iborasini ko'p qo'laydi, chunki aynan shu ibora xalqimizga hos mehmondo'stlik fazilatining naqadar ustun ekanligini ko'rsatib

beradi. Zero Kaykovus “Qobusnoma” sida aytilganidek: “*Bas, ey farzand mehmondil bo’lg’il va mehmong’a ta’na qilmag’il, har vaqt ochiq yuzlik bo’lg’il, toki har kishikim mehmoning bo’lsa, shodlik bilan taomingni yesin*”. Endi Arab xalqidagi mehmondo’stlik hususiyatini ochib beruvchi an’analar va u bilan bog’liq milliy xarakter hususiyatlarini ko’rsatuvchi til birliklarini ko’rib chiqamiz. Arablar ham O’zbek xalqi singari mehmonlarga iltifot ko’rsatish hususiyatlariga egadirlar. Ularda mezbon mehmonni hursand qilish uchun imkon boricha xarakat qiladi. Arablarda xonadon sohiblari faqatgina mehmondan so’nggina taomga qo’l cho’zadilar, bu ular uchun mehmonning hurmati yuqoriligidan dalolat beradi. Mehmonlarni eas hamisha ochiq chexra bilan qarshi olish arab madaniyatiga hos yana bir jihatdir. Mana shu an’ana asosida kelib chiqqan mashhur arab iborasi, ya’ni لا اتغذيني ولا تغذيني (*laqqoinni va la itg’oddini*) bunga yaqqol dalildir. Uning ma’nosi mehmonga chaqirmoqdan mehmonni kulib qarshi olmoq yaxshi demakdir. Bundan kelib chiqadiki, arablar ham hushmuomalaikni ayniqsa mehmonni yaxshi kutib olish fazilatini o’z milliy xarakterlarida mujassam etgan xalqdir. Endi mana shu mehmon kutish an’anasi bilan bog’liq urf odatlarga to’xtalamiz va ularning an’ana bilan farqini misollar yordamida tekshirib ko’ramiz. Yuqorida to’xtalib o’tganimizdek har uchala xalq madaniyatida mehmon kutish an’anasi mavjud va bu an’ana albatta *mehmonnavozlik ko’rsatish* fazilati bilan bog’lanib ketgan. Bu fazilat esa o’z navbatida hushmuomalalik, ochiq chexralilik, kirishuvchanlik, saxiylik kabi hislatlarni o’z ichiga olganligi bilan xarakterlidir. Ana endi mana shu mehmon kutish an’anasining o’z odatlari borki aynan mana shu urf odatlar barcha xalqlarda ham turlicha ko’rinishga ega. Yana shuni aytish kerakki urf odatlar faqat yaxshi deb hisoblangan fazilatlar asosida paydo bo’ladi. Buning isboti sifatida arablarning أحسن الحسن حُسن الأدب (*axsanul xusni xusnul adabi*), ya’ni odatlarning eng yaxshisi ularning eng chiroylisidir iborasini keltirish mumkin.

O’zbek xalqida mehmon kutish bilan bog’liq udumlarning soni ko’p. Biz tilda aks etgan milliy xarakter hususiyatlarini taxlil qilayotgan ekanmiz shu udumlarning bir bo’lagi bo’lgan iboralarimizni keltirib o’taman. Avvalo xalqimizda *hush kelibsiz* deb qarshi olingandan so’ng mehmonga dasturxon solinadi va *uyning to’riga chiqing*

yoki *to'rga o'ting* iborasi bilan unga yuqoridan joy ko'rsatiladi. Bu ibora metonimiya hodisasiga uchragan bo'lib, uning zamirida o'tiriladigan joining eng bosh yuqori qismi nazarda tutiladi. Xalqimizning milliy musulmonchilik odatlardan yana biri barcha o'tirib bo'lganidan so'ng duoi fotiha qilish odatidir. Bunda *yurtimiz tinch bo'lsin, honadonlarimiz obod bo'lsin, yaxshi kunlarda sog' salomat ko'rishib yurish barchamizga nasibi ro'zi aylasin* deya yoshi ulug'lardan birortasi duo qiladi va qolganlar unga qo'shilib *Omin Alloxu Akbar* deya yuzlariga fotiha tortadilar. Fotiha aslida arabcha “ochish” degan ma'noni bildirib, Quroni Karimning eng birinchi surasi nomidir. Dasturxon atrofida fotiha qilish o'zbek milliy xarakterining eng go'zal odatlaridandir, chunki unda Allohga shukronalik, undan yaxshiliklarni so'rash kabilar mujassam bo'lgan. Mana shunday ezgu tilaklar bilan mehmondorchilik ham “ochiladi”. Endi navbatdagi o'zbek udumi, faqat xalqimizga hos bo'lgan “o'zbekcha so'rashish” odatiga navbat keladi. Bu udum shundan iboratki umda mehmonlar va mezbonlar bir biridan yeti urug'ining xol ahvolini so'rab ko'rishadilar. Shundan so'ng avvalo non va choy *dasturxonga tortiladi*. Xalqimizda *bir payola choy ustida* degan ibora mavjuda. Bu ham metonimiya hodisasi bo'lib aslida u choy ichib suhbat qurishni ifodalaydi. Xaqimiz bor noz nematini mehmon uchun hozirlaydi va bundan aslo og'rinmaydi, chunki *mehmon kelar eshikgan, rizqi kelar teshikdan* maqoliga xalqimiz chindan amal qiladi. O'zbek xalqida mehmon uchun albatta milliy taom *palov tortish* odati bor, ya'ni mehmonlar palov olib kelinib, *olib o'tiring* deya taomga rag'batlantiriladi. Taom tanovul qilishda ham bir qator urf- odatlarimiz jam bo'lib avvalo yoshi uug'larga yoki mehmonga *boshlab bering* deya yuzlaniladi. Mehmon ham *o'zingizdan bo'lsin* deya *Bismilloh* aytib taomga qo'l cho'zadi. Biz bunday mulozamatlarni va o'zaro hurmat aks etgan munosabatni boshqa xalqlarda uchratmaymiz. Shuning uchun bu iboralarni tarjima qilib, uning milliy madaniy hususiyatlarini saqlab qolish mushkul. Tarjimondan juda katta bilim va milliy madaniyat haqida tushuncha talab etilishining boisi ham shunda. Endi Arab madaniyatiga yuzlanadigan bo'lsak ularda - ادخلوا البيوت من ابوابها (udxulul buyuta min abvabiha) iborasi mehmonga borish odatlaridan birini o'zida mujassam etadi. Ya'ni unda keltirilishicha kishi mehmonga borganda uning eshigidan salom berib o'ng

oyog'i bilan kirmog'i lozim. Shundan so'ng albatta Asalamu alaykum va rahmatulloh deb salom beriladi va mezbon ham Assalamu Aalykum va rahmatullohi va barakatihida deya alik oladi. Ular *ahlan va sahlan* iborasi orqali hush kelibsiz deb mamnuniyatlarini ifoda etadilar. Erkaklar ko'rishganda bir birlarini yuzlaridan o'pib qo'yishlari mumkin, bu arab mentalitetiga hos ko'rishish usulidir. Arablar bir biriga mulozamat ko'rsatganda *وجهها يحمض اللبن* (vujuhuha yahmidul labana) yani yuzingiz sutga o'xshab oppoq iborasini qo'llaydilar. O'zbek tilida esa ko'proq yuz nurga qiyoslanadi va *yuzingizdan nur yog'ilmoqda* iborasi qo'llaniladi. Arablarda odat bo'yicha mehmon bilan suhbat qurilayotgan vaqtda taom yeyilmaydi chunki ularning mentalitetida barcha suhbatlar taom tanovulidan oldin qilinadi. Arablardagi quyidagi ibora *أعلى الممالك ما يبني على الأسفل عمل خيراً وارمه البحر* yaxshilik qil va dengizga tashla ma'nosida bo'lib, bevosita ularning mehmondo'stlik fazilatlari bilan uyg'unlashib ketgan. Chunki ular mehmonlarni aytib otganimizdek eng yaxshi taomlari, ichimliklari bilan siylashni hush ko'radilar va buning evaziga biror narsa talab qilmaydilar. Buning yana bir jihati Arab mentalitetida izzat-nafs, g'urur kabi hislatlarning kuchli o'rin egallaganligidadir. O'zbek xalqida ham xuddi shunday ibora mavjud bo'lib, u quyidagicha korinishga ega: *yaxshilik qil, daryoga ot, baliq bilar, baliq bilmasa xoliq bilar*. Bundan asosiy maqsad shuki insonlarga qo'ldan kelgancha, evaziga xech narsa kutmay yaxshilik qilish lozim. O'zbeklarda ham bu iborani mehmondo'stlik odatlarining bir bo'lagiga kiritish mumkin. Chunki xalqimiz mehmon kutishda aynan shu iboraga doimo rioya qiladi.

Yana bir an'ana ya'ni ikki insonning oila qurishi barcha xalqlarda o'z milliy xarakter xususiyatlariga ega. Chunki ular zamirida yotgan urf-odatlar, diniy ko'nikmalar asosida shakllangan marosimlar, milliy madaniy jarayonlar turlicha ko'rinishga va o'z milliy ildizlariga ega. Bular o'z navbatida xalqning milliy xarakterini ko'rsatuvchi yana bir manbadir. Ular asosida kelib chiqqan til birliklari esa bu manbani o'rganishga behisob hissa qo'shuvchi omillardandir. Birgina O'zbek xalqi turmush qurishgacha bo'lgan marosimlarda, nikoh marosimlarida va undan keyingi jarayonlarda shu qadar ko'p milliy urf odatlarni qamrab olganki ularni hisoblab chiqish qiyin. Va e'tiborli jihati shundaki ularda faqat O'zbek mentaliteti va

xarakteri aks etgan. Chunki xalqimizning eng yaxshi kunlaridan biri to'ylar o'tkaziladigan kun hisoblanadi. Shundandirki, keksalarimiz doim: *Xar kimni to'yga yetkazsin, orzu havas ko'rsin* deyдилar. Ana shu orzu havas zamirida ona xalqimizning dilidagi barcha orzu armonlar ro'yobga chiqadi. Qarindosh- urug'lar, yoru- birodarlar to'yda uchrashib, samimiy tilaklarini bir biriga izhor etadilar. Aynan shunday hususiyatlarga ega xalqimizning milliy qadriyatlari jo bo'lgan bir qator milliy xarakterdagi til birliklarini e'tiboringizga havola etaman.

Xalqimizning milliy xarakteri aks etgan odatlardan eng avvali bu sovchilikdir. Sovchilik o'ziga xos surf odatlarni, qadriyatlarni o'zida aks ettiradi. Elchilikka boradigan ayol xalqimiz nazdida oqila, dono, ko'pni ko'rgan, obro'- e'tiborli bo'lmog'i darkor. Arab madaniyatida ham sovchilik muqaddas hisoblanadi. Chunki diniy nuqtai nazardan ham ikki yoshning oila qurishida sovchilar muhim vazifani bajaradilar. Bu odatning muqaddasligini Zaxiriddin Muhammad Boburning qizi Gulbadanbegim yozib qoldirgan "Xumoyunnoma" tarixiy-etnik asarida keltirilgan kichik bir lavha ham isbotlaydi. Ya'nikim: *Xumoyun podshoh Mirzo Xindolning saroyida Hamidabonu begimga ko'zi tushadi. Va ko'p o'tmay Hamidabonu begimning qo'lini so'rab kishi qo'ydiradi. Sovchilar qirq kun ovora bo'lishadi. Hamidabonuni ko'ndirgunlariga qadar Xumoyun podshoh sabr bilan kutadi. Shu nuqtada xalqimizga hos yana bir fazilatga diqqatingizni jalb etmoqchiman. Ya'ni Xumoyun podshox o'z mamlakatining shohi, obro' e'tiborli kishisi bo'lishiga qaramay, ajdodlardan o'tib kelgan odatni oyoqosti qilmaydi. Vaholanki, bunga uning qudrati yetardi. Zo'rlik bilan bo'lsada bonu visoliga yetishishi mumkin edi. O'sha kutish tagida nafaqat sabr, balki qiz tomonga bo'lgan ehtirom, ichki madaniyat, hurmat zohirdir. Hadisda aytilganidek "Iymonning afzali – sabr va keng qblbi bo'lishdir". Xalqimizning ozodalika, saranjomlikka bo'lgan intilishi ham mentalitetimizga hos fazilatlardan biridir. Shuning uchun ham qiz ko'rgani kelgan sovchilar uyning *chinnidek* ekanligiga alohida e'tibor qaratganlar. Chinniga qiyoslanishi esa uning pokizaligiga dalolat. Qizlar, kelinchaklarning bu boradagi asosiy vazifasi esa hovliyu ko'chalarni *yog' tushsa yalagudek qilib* supurishdan iboratdir. Yana shuni takidlash lozimki, sovchilik bokira qizning ziynatidir. Diniy*

qarashlarimiz bir hil bo'lganligi sababli qizlarning bokira bo'lishi O'zbek va Arab xalqlarida ham uning hayot mamot masalasi bilan tengdir. Xalqimiz o'z iffatini saqlagan qizlarni ulug'lab – *Pardali qiz pariga teng* deydi, or nomusini saqlay olmaganlarni esa– *It tekkan osh yohud ota onasini elu-yurt oldida boshini ham qilgan benomus* deya qattiq qoralaydi. Zero, “*Hayo – iymondandir*” iborasi Islom dinini mahkam tutib amal unga amal qiluvchi xalqimizning qon- qoniga va milliy xarakteriga singib ketgandir. Xalqimizda ota-ona o'zining bor yaxshi fazilatlarini hoh og'il, hoh qizining fel-atvoriga o'tkaza olsa va bu farzand haqida mahalla “qobil bola” yohud “oqila qiz” deb gapira boshlasa, uni tilovchilar ko'payadi. Yigit bo'lsa ta'rifi ketgan mehnatsevar qizga uylanmakka shoshadi. Shu o'rinda Abdulla Qodiriyning qahramonlari Anvar va Ra'no to'g'risida eslamay iloj yo'q. Chunki ularning tilida aks etgan har bir jihat o'zbek xarakterining eng ulug'vor va muqaddas fazilatlarini o'zida mujassam etadi. Shu sababli ham ular xalqimiz uchun sevimli. Axir Anvar zukkoligi, oqilligi, olti yoshida savod chiqarib, o'n bir yoshida dunyoviy bilimlarni tugal egallaganligi bilan o'zbek xalqi tasavvuridagi asl milliy qahramonga aylandi. Ra'no esa o'n to'rt yoshida “Haftiyak”, “Qur'on”, “Chaxor kitob”, “So'fi Olloyor”, “Maslaki muttaqiy”, Navoiy, Amiriy, fazliy, Hofiz Sheroziy, Mirzo Bedilni mukammal bilganligi uchun xalqimiz nazdida o'zbek qizining miliy madaniy qiyofasini aks ettirdi. Bularning barchasini inobatga olgan holda xalqimiz “*Qudachilik – ming yilchilik*” deya kelin tanlashda ham, kuyov tanlashda ham adashib bo'lmasligini uqtiradi va ularning yuqoridagi sifatlarga ega bo'lishlarini targ'ib qiladi. Zero, Kaykovusning “Qobusnoma” sida shunday deyilgan: “*Xotin kamolg'a yetg'on oqila bo'lg'on, onasining kadbonulig'in, otasining kadxudolig'in ko'rg'on va bilg'on bo'lsun. Agar bundog' nozanin qo'lingga tushsa, uni also qo'ldan chiqarmag'il va jaxd bilan uni olg'il*”. Dono xalqimizning sovchilikdan so'ng bir qator sinov udumlarini ham qo'llashi tilimizdagi “*Husn to'yda, aql esa kunda kerak*” iborasining amaldagi isbotidir. Axir bular oilaning mustahkamligini, farzandlarning baxtini taminlaydi. Bu borada o'zining “Boburnoma” asarida buyuk bobomiz Zaxiriddin Muhammad Bobur keltirgan ta'rif shunday:

Zani bad dar saroyi mard nako',

Ham dar in olam ast do'zaxi u.

Yuqorida biz Sharqda mehmonning obro'si naqadar baland ekanligini haqida gapirgan edik, ho'sh unda kutilmagan mehmon- sovchining obro'si qanday? O'zbek qizlari uchun hayo, latofat, go'zallik ramzi bo'lib kelgan Kumushbibiga sovchi Ziyo shoxichi bilan Xasanalining Qutidor tomonidan qandog' kutib olinganini eslashning o'zi kifoya. *“Yuraklarni titratib yuboradigan darajadagi o'ng'aysizlikni yengib, sovib qolgan tanchaga darxol olov soladilar. Sandal ustida dasturxon yozilib, kulchalar keltiriladi. Ne'matlarning eng ulug'i non tishlanmasdan turib gap boshlanmaydi. Ziyo shoxichi bilan Xasanali go'yo bu gaodonlikka yillab tayyorlangandek, gapni shunday ustalik, suhandonlik bilan boshlaydilarki, shu bilan Qutidor ko'ngliga og'riq solib qo'yishdan qo'rqishadi. Garchi Qutidorga ularning nima maqsadda kelgani ayon bo'lsa ham g'urur, mag'rurlik ichdagi sevinchning tashiga chiqishga yo'l qo'ymaydi”*. Bizga hamisha o'rta asr ayollari xuquqlari cheklangan, xo'rlangan deb ta'rif beriladi. Ammo Qutidor qizini unashtirishda xotinidan maslahatsiz ish yuritmaydi. Bunda xalqimizga hos yana bir jihat, ya'ni hadisda aytilganidek *“Qizlarni turmushga chiqarish to'g'risida onalar bilan maslahatlashinglar”* namoyon bo'ladi. Va albatta xalqimizda so'nggi xulosa ota tomonidan bildiriladi. Bunga *Ota rozi – xudo rozi* iborsini misol qilib keltirish mumkin. Shu bilan agar ota rozi bo'lsa navbatdagi udumlar- *“oqlik berdi”* yoki *“oqlik oldi”*, *oqlik o'radi”* boshlanib ketadi. Turkiy xalqlar azaldan chorvachilik bilan shug'ullanib kelishgan. Shuning uchun ham oq narsani muqaddas deb bilamiz. Un, guruch, sut, don oyoq ostiga to'kilsa, bosgan odamning ko'zi ko'r bo'ladi degan aqidaga ishonamiz. Navbatdagi urf-odatimiz *non sindirish* yohud *fotiha* deb ataladi. Shu o'rinda fotiha so'zi bilan bog'liq qiziq bir jarayonni kuzatish mumkin. Xalqimiz aynan ushbu so'zni ikki xil bir biridan tubdan farq qiluvchi marosimlarga nisbatan ishlatadi. Bunda fotiha so'zi urg'uning turlicha tushishi bilan farqlanadi. Birinchisi unashtirish marosimi bo'lib, bunda ikki yosh bir biriga fotiha qilib qo'yiladi. Bu yerda biz *'fotiha* deb urg'uni birinchi bo'g'inga qo'yamiz va shunday talaffuz qilamiz. Ikkinchi marosim esa aksincha kimdir olamdan o'tganida borib, uning

yaqinlariga taziya izhor etib, o'lik uchun duoi fotiha qilib kelishni anglatadi va bu marosim ham foti'ha deb ataladi. Ammo unda urg'uning oxirgi bo'g'inga tushishi sababli xalqimiz tilida bu so'z *fataha* ko'rinishida, yoki *fatahagarchilik* shaklida namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin. Musulmonlarda nikoh to'yidan avval, albatta, fotiha to'yi lozim deb bilinadi. Chunki "fotiha" arabcha "ochmoq", "boshlamoq" degan ma'nolarni bildiradi va muqaddas kitobimiz Quroni Karimning birinchi, boshlang'ich surasi ham Fotiha surasidir. Fotiha to'yi yoki "*non sindirdi*" Jizzaxda "*tillo sanadi*", Toshkentda esa "*ma'lum oshi*" deb ham yuritiladi. Bu nomlar bevosita ushbu marosimda amalgam oshiriladigan urf –odatlardan kelib chiqqan. Ya'ni o'z nomidan ko'rinib turganidek bu marosim chog'ida qizning onasiga *sut puli*, *tikish puli*, *kelinga bo'g'cha*, *qand –qurs*, *non*, *patir*, *qatlama*, *kelishilgan jonliq (qo'y)*, *un*, *guruch* keltiriladi. Ikki yoshning baxti uchun – "*Iloyo qo'shgani bilan qo'sha qarisin, uvali juvali bo'lsin, mo'min kuyov, qobil kelin bo'lishsin*" kabi yaxshi niyatlar tilab non ushatiladi. Ana endi qizi bor xonadon uchun *sep yig'ish* jarayoni boshlanadi. Buni ham biz o'zbek milliy xarakterining bir bo'lagiga kiritishimiz mumkin. Chunki xalqimiz farzandi dunyoga kelgandanoq o'zi yemay, ichmay u uchun sandiqqa a'mol yig'adi. Axir o'zbek ayollari qiz bolani sepi bilan to'kisligini ko'rsatuvchi *sepli qiz- epli qiz* maqolini bejizga yaratmaganlar. Yurtimizning barcha viloyatlarida qiz sepi yig'ish avvaldan rasm bo'lgan. Momolarimizning xikoya qilishlaricha, ilgari qiz sepida *soch po'pak*, *maxsi-kovush*, *shoyi minsak*, *peshmat*, *kiyma*, *bosh ro'mol (katta shol ro'mol)*, *turli durralar*, *zardevol*, *ro'yjo*, *bolishpo'sh*, *tokchapo'sh*, *qumg'on* kabi ashyolar bo'lgan. Ularning aksari qo'l mexnati yordamida qilingan bo'lib, u xalqimiz milliy his o'ylari, orzu-intilishlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. To'ydan bir ikki kun oldin esa Toshkentda "*qiz oshi*" yoki "*qiz majlisi*" deb ataladigan yig'in tashkil etish odat tusiga aylangan. Bunga ko'ra qiz ya'ni bo'lajak kelin barcha dugonalarini bazmga taklif etadi. Bu marosim Abdulla qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida quyidagicha tasvirlanadi:

Ikki yoshning oila qurishi bilan bog'liq eng asosiy marosim bu nikoh o'qilishidir. O'zbek xalqining xaqiqiy milliy mentalitetini o'zida mujassam etgan

Otabek va Kumushbibining nikohi yodingizdami? *“Domla xutba boshlaydilar, forsha o’qilgan “hamd salovot” va boshqalardan so’ng xutba eng nozik bir o’ringa kelib to’xtaydilar: - “Sizkim Otabek Yusufbek hoji o’g’li, Kumushbibi Mirzakarim qizini o’zingizga shariy xotinlikka qabul qilasizmi?”*

“Xa, shariy, qonuniy xotinlikka...”

Aynan shu tartibda milliy urf odatlarimiz bo’yicha ikki yosh nikohlanadi. Bu diniy nikoh, albatta qonuniy yo’l bilan ham himoyalalmog’i shart. Xalqimizda *to’y keldi, suruvi katta qo’y keldi* iborasi juda mashxur. Bu ibora zamirida milliy urf odatlarimiz asosida shakllangan kelin tomonga to’y mahsulotlarini jo’natish udumi yotadi. Qizga to’y kelishi uning bokiraligi, obro’siga berilgan tuhfadir. Shu o’rinda yana bir ibora, yani *“qalin puli”* mavjud bo’lib, bu qizning ota onasiga uni *oq yuvib oq tarab* o’stirganlari uchun tashakkur aytishning bir ko’rinishidir. To’yda amalgam oshiriladigan yana bir qator udumlarimiz borki, ularni o’zbek madaniyatining ajralmas bo’lagi deyish mumkin. Masalan, kelin kuyov ustidan *sochqi sochish* odatini olaylik. Sochqi uchun turli shirinliklar olinadi va uning zamirida xayoti shirin bo’lsin qabilidagi niyat mujassamdir. Bu odat asrlardan buyon turkiy xalqlarning milliy udumi sifatida saqlanib kelmoqda. Buning isboti tariqasida Gulbadanbegim tasvirlab bergan Xindol mirzo bilan Sulton begimning nikoh to’ylarini xotirlash kifoyadir. *“Shoxruhiy tanga o’n ming chamasida bo’lib, bula – hammasini avval valine’matlar oldiga, so’ngra shu majlisda hozir bo’lganlarga sochib yubordilar”*. Va yana to’y kuni yoshi uluag’lar *“Xazarsimat xazar dori, dardi baloga dori”* deb kuylab isiriq tutatadilar. Chunki isiriq barcha illatlarni yo’q qilish hususiyati bilan xalqimiz orasida juda mashhur. Yurtimizning barcha viloyatlari o’ziga xos milliy sharoitidan kelib chiqqan turli tuman urf odatlarga ega. Masalan *“ro’mol yozdi”, “kuyov tovoq”, “kar ota”, “kuyov uloq”, “qiz aytar”* kabi marosimlarning barchasi mamlakatimiz hududlaridagi nikoh bilan birga tashkillashtiriladigan marosimlardandir. Xalqimizga hos milliy, diniy odatlarimizdan eng mashhuri bu uzatilayitgan qiziga otaning el oldida *oq fotiha* berishidir. Otalar yuzlari yorug’ holda qizlarini – *borgan joyingda tinib tinchib toshdek qotgin, tup qo’yib palak yozgin. Serfarzand, serdavlat bo’lgin, qaynota, qaynonangni hurmat qilgin. O’sha yerda tosh kelsa kemir, suv kelsa simir.*

Ilohim qo'sha qarigin, Omin Allohu akbar , deb duo qiladilar. Bu niyatlarni o'zida mujassam etgan duoda o'zbek tilining o'xshatishlarga, kuchaytirishlarga naqadar boyligini va go'zalligini yana bir karra his qilishimiz mumkin. O'zbek xalqining to'yi esa o'z nomi bilan – to'y. Bag'ri butun, har tomonlama shodlik ko'ngliga siqqan xalqimiz elu yurtga minnatsiz dasturxon yozib, yiqqan terganini to'yida sarflashni hush ko'radi. Yaxshi niyatlarida ham doimo *to'ylarga yetkazsin* deb duo qilish odati ana shu fazilatidan kelib chiqqan. Quyida nikoh kechasining xalqimizga hos surf odatlari va ular aks etgan xalqimizning milliy madaniy nutq ko'rinishlari bilan tanishamiz.

Nikoh kechasi kelin va kuyovning oyog'i ostiga *poyondoz solish* odati mavjud. Poyondoz matodan bo'lib, kim shohi, kim atlasdan tashlaydi. Bu matoni *kuyov jo'ralar*, ya'ni kuyovning do'stu birodarlari talashib- tortishib bo'laklab oladilar. Yurtimizning ko'pchilik hududlarida poyondozni keksaroq ayol yoki *mahalla dasturxonchisi* soladi. Nikoh marosimidan so'ng kelin va kuyov *chimildiq* deb atalmish bezatilgan uyga kirgiziladi. Chimildiqda ham ular bir qator milliy urf odatlarni bajarmoqlari lozim bo'ladi. Masalan, xalqimizda *oyna qaratar* odati mavjud bo'lib, bu odat uchun yaxshi yomonning nazari tushmagan, yani o'rab qo'yilgan oyna tanlanib, kelin kuyovga qaratiladi. So'ngra turmushlari asaldek shirin bo'lishini niyat qilib *asal yalatar* odati bajariladi. Bunda kuyov kelinga o'z qo'li bilan asal yalatishi nazarda tutiladi. Sevimli shoirimiz Erkin Vohidov o'zining “Asal oyi” she'rining muqaddimasida shunday degan edi:

Bizning hayot oshiq ahlining

Tillarida g'azal bo'ladi.

Sevgi bilan qurilgan umr

So'ngigacha asal bo'ladi.

Yana bir odat kuyovning kelin sochini ipaklik mato bilan silashi, yani *soch siypar* odatidir. Bu odat bir hisobda ayol zotining xalqimiz nazdida nazokat va latofat, muloyimlik timsoliga aylanganini bildiradi. Shuningdek bolajon xalqimiz oilaning obodligi albatta farzandga bog'liq deb hisoblaydi va nikoh kechasi bug'doy to'ldirar odati ham amalgam oshiriladi. Bunda kuyov poyafzaliga solingan bug'doy unga

serfarzand bo'lsin deb qilingan niyatdir. Axir xalqimiz bejizga aytmaydi: *Bolalining beli chinor, bolasizning beli sinar yohud farzand belning quvvati, ko'zning nuri*. Bu ham o'zbek milliy xarakterida aks etgan eng oliy fazilatlardan biri, yani xalqimizga hos bolajonlik hislatining bir ko'rinishidir.

Marosimlarda kuylanadigan xalq qo'shiqlari tilimizda aks etgan milliy xarakterimiz hususiyatlarining bexisob manbalaridir. Chunki xalq qo'shiqlari bu ko'ngillarning nidosidir. Unda milliy his tuyg'ularimiz, ona yurtga muhabbatimiz oddiygina so'zlar tizmasi yordamida qo'shiqqa aylantirilgan. Mana shu qo'shiqlarning ayrimlari shu bugungacha yashab keladi. *“Yor-yor”, “Kelin salom”, “Alla”* kabi xalqimiz qo'shiqlari sodda so'zlar yordamida xalqona va milliy fazilatlarimizni ochib berishi tahsinga sazovordir. Masalan qiz bolani kelinlikka kuzatayotgan ayollar tilidagi ushbu *“Yor-yor”* so'zlariga e'tibor bering:

Tog'da toychoq kishnaydi ot bo'ldim deb yor-yor,

Uyda kelin yig'laydi yot bo'ldim deb yor-yor.

Yig'lama qiz yig'lam to'y saniki yor-yor

Ostonasi tillodan uy saniki yor-yor.

Bu so'zlarda kelinlikka o'tlanayotgan qizning o'zbekona ibosi, hayosi, ota uyini tark etishdagi g'amlari aks etgan. Uning davomida esa tillo ostonali uy vadasi bilan kelinga taslli berilmoqda va unga baxt saodat tilanmoqda. Agar biz milliy xalq qo'shiqlarini yanada ko'proq taxlil qilsak ular ko'ngil mulki bo'lgani hoda o'zida tarbiyaviy jihatlarni ham aks ettirganini guvohi bo'lamiz. Demak, milliy xarakterni taxlil qilishda xalq ijodi eng bebaxo manba hisoblanadi deb aytishimiz mumkin.

Arab xalqlari milliy xarakterini ochib berishda ham ularning urf odatlari jam bo'lgan bir qator marosimlarni va kuy qo'shiqlarni ko'rib chiqish mumkin. E'tiborga molik jihati shuki ularda ham oila qurish faqat nikoh bilan bog'lanadi. Yana bir qator oila qurish marosimlar ya'ni, taklif, unashtiruv, hena qo'yish marosimi kabilar madaniyat ta'siri ostida rivojlangan. Inglizlar esa oila qurishni diniy marosim sifatida emas, ko'proq sevgi bazmi sifatida qabul qiladilar. Bu ularga hos mentalitetning diniy jihatdan farqi bilan bog'liq. Inglizlarda *Marry in September's shine, your living will be rich and fine* iborasi mavjud bo'lib u qadimdan inglizlar orasida mashxur.

Ularda hosil pishig'i va yangi yil bayramlari orasidagi muddat turmush qurish uchun eng ajoyib vaqt hisoblanadi. Bu huddi o'zbek va arablardagi Juma kunini hosiyatli deb, ko'proq shu kunga intilish hususiyati kabidir. Shuni takidlash lozimki, Inglizlar nikoh marosimini ko'proq dabdaba bilan emas, balki o'yin kulgi bilan o'tkazishni hush ko'radilar. To'y marosimida kelin va kuyov hech qanday cheklovlarsiz do'stlari bilan o'yin kulgi qilishi, raqsga tushishi, o'yin o'ynashi mumkin. Eng yaxshi tilaklar tilash odati Inglizlarda ham ajralib turadi. Bunga misol sifatida Shekspirning quyidagi so'zlarini keltirish mumkin: *Honor, riches, marriage-blessing, Long continuance, and increasing, Hourly joys be still upon you!* Ko'rib turganimizdek qadim zamonlardanoq insonlar milliy xarakteri umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllanib, kamol topgan. Urf odatlar turli tuman bo'lsada, ular zamiridagi milliy xarakter hususiyatlari aslo o'zgarmagan. Ya'ni insonlar ezgu hislatlarga, yaxshilikka doimo intilib kelganlar va ularning xarakteridagi bu jihatni biz yetuklikka intilish deb atashimiz mumkin. Mana shu jihat barcha xalqlar milliy xarakteriga hos bo'lganligi sababli, unga umummilliy harakter jixati deb nom berishimiz mumkin.

So'ngi so'z o'rnida aytilish mumkinki milliy xarakter va mentalitet tushunchalari madaniyat tushunchasi bilan chambarchas bog'langani holda, madaniyatni rivojlantiruvchi ma'naviy strukturalarni ham o'zida birlashtiradi. Bu tuzilmalar xalqlarning o'ziga hos jixatlari, etnik tarkibi, atrof muhit, tabiiy omillar ta'siri ostida shakllanadi va madaniyat quruvchiiga aylanadi. Jamiyat hayotidagi eng muhim axborot saqlovchi va uzatuvchi vosita til yordamida esa biz bu madaniyat bo'laklarini o'rganishimiz va taxlil qilishimiz mumkin. Madaniyat strukturalari har bir xalqda o'ziga xos ko'rinishda bo'lishi til birliklarida ham o'z aksini ko'rsatadi. Bu strukturalar sifatida sa o'sha xalqqa tegishli milliy axloqiy normalar, urf odat va an'analar, diniy va estetik qarashlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Milliy urf-odat va an'analarda butun bir xalqning ijtimoiy extiyojlari, ahloq normalari, manfaatlari, amaliy tajribalari va tarixiy yashash sharoitlari o'ziga xos ravishda mujassamlangan bo'ladi. Ular xalqning faoliyati jarayonida tug'iladi. Har bir xalq butun tarixi davomida yashash sharoitining xarakteri va xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda

kishilar o'rtasidagi munosabatlarning ma'lum norma va yo'l-yo'riqlarini yaratadi. Bu norma va yo'l - yo'riqlar avloddan-avlodga o'tishi bilan takrorlanib, urf-odat va an'analar ga aylanib qoladi. Agar biz madaniyatni shakllantiruvchi omil sifatida diniy qarashlarni oladigan bo'lsak, u holda bir xil diniy e'tiqodga ega xalqlar orasida umumiy madaniy tushunchalar va tilda o'z ifodasini topgan o'xshash normalarni uchratishimiz mumkin. Shakllangan urf-odat va an'analar shahsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishida shahsning hulq-atvorlarini ijtimoiy jixatdan belgilovchi, boshqarib turuvchi va shakllantiruvchi vazifalarni bajaradi. Qaysi bir urf-odat va an'anani, udum yoki marosimni ularning kelib chiqish sabablarini o'rganmasdan turib qaraydigan bo'lsak, ular bir qarashda, bemani, bexuda bo'lib ko'rinadi. Aslida esa ularning barchasi kelib chiqishi bo'yicha xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy faoliyati natijasida vujudga kelgan va ularning ma'lum moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilgan. Ammo bu ularning milliy xarakteri ham bir xil degani emas. Yuqorida aytib o'tganimizdek madaniyatni ham, milliy xarakterni ham shakllantiruvchi ko'pgina omillar mavjud. Ularning bazilarini biz ushbu bo'limda ko'rib chiqdik va til birliklari yordamida taxlil qildik. Va yana taxlillardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, biror bir madaniy muhitda ma'lum turdagi tuzilmalarning bo'lmasligi ularni lisoniy ifodalashning imkoni yo'qligidan darak bermaydi. Insonlar ongida tushuncha bir hil bo'lishi mumkin ammo madaniyat ta'siri ostida uni ifodalagan til birligi bir biridan farq qilishi mumkin. Shu bilan birga milliy xarakter hislatlari ham o'xshash bo'lgani holda turli tashqi ta'sirlar, tasviriy usullar yordamida bir biridan farqlanishi mumkin. Buni biz milliy xarakterni ifodalovchi til birliklarini qiyoslash yordamida aniqlashimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa o'rnida avvalo shuni ta'kidlash joizki, til jonsiz bir predmet emas balki madaniy qatlamning bir bo'lagi bo'lgan jonli ijtimoiy hodisadir. U insonlarga bog'liq holda o'sadi, rivojlanadi yoki aksincha barham topadi. Bu jarayonlarning sodir bo'lishi esa avvalo insonga bog'liq. Chunki til bizning ajralmas bo'lagimiz, aloqa qurolimizdir. Demak bizning butun ichki kechinmalarimiz, orzu intilishlarimiz, ko'nikma va tajribalarimiz ham til bilan bog'langan. Til barcha hislatlarni o'zida mujassam ettirish bilan birga milliy xarakter tushunchasini ham o'zida gavdalantiradi. Agar biz milliy madaniyati bir biridan farq qiluvchi xalqlar milliy xarakterini ti birliklari yordamida qiyoslasak bir qator qiziqarli va takrorlanmas ifoda uslublarining guvohi bo'lamiz. Tadqiqot doiramizdagi milliy xarakter ham tilning ana shu "xizmati" tufayli ro'yobga chiqadi va ma'lum bir lisoniy ko'rinishlarga kiradi. Biz madaniy xususiyatlarni, voqeliklarni, xarakterlarni tilning yordamisiz taxlil qila olmaymiz. Chunki inson va voqelik munosabatida til o'ziga hos bog'lovchi, vositachilik rolini o'ynaydi. Til o'zida voqelikni aks ettiradi, madaniyat esa ushbu voqelikning ajralmas qismidir. Voqelikning o'zini ham milliy deb atash mumkin va bu milliylik lisonida dunyoni o'ziga hos "ko'rish", uni idrok etish natijasida o'z aksini topadi. Turli xalqlarga xos an'analar, qadriyatlarning xilma xilligi esa o'sha xalq vakillarining tafakkur jarayonida o'ziga hos madaniy senariylarni yuzaga keltiradi. Shu sababli ham turli madaniyat vakillariga hos "milliy xarakter" lisoniy voqelantirishda bir biridan farqlidir. Bizning nutqimiz bu bizning maxsus milliy xarakterimiz va mentalitetimizga asoslangan kognitiv ongimiz maxsulidir. Unda mavjud bo'lgan tushunchalar xamisha tilda aks etadi. Chunki ong va til bir biriga chambarchas bo'g'liq bo'lgan zanjirdir. Milliy madaniyat esa ularning o'rtasida bo'lgani holda har ikkisiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli ham boshqa boshqa madaniyat vakillarining ma'lum bir tushunchani tafakkur qilish va uni tilda maxsus ko'rinishda ifoda etishlari ham albatta bir biridan farqli. Bu farq madaniyatlar o'rtasidagi rang barang til birliklarida o'z aksini topadi.

Insonlar uchun ijobiy xarakterga ega bo'lgan g'oyalar butun insoniyat ahliga birdek tanish va tushunarli, ammo uni lisoniy vositalar yordamida ifoda etish usullari turli-tuman va ko'proq o'sha jamiyatga ma'lum bo'lgan yashash sharoiti, yasash muhiti, qisqacha qilib aytganda ularni ajralmas qismi bo'lgan madaniyati bilan bog'liq ekan. Zero til va ong madaniyatdan holi holda mavjud bo'la olmaydi. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, lisoniy ong kognitiv ong bilan chambarchas bo'g'liq va kognitiv ong ma'lum milliy konseptlarni o'zida mujassam ettirish hususiyatiga ko'ra boshqalaridan farq qiladi. Va bu holat til birliklarida o'z aksini ko'rsatadi. Aslida bizning nutqimiz bu bizning maxsus milliy xarakterimiz va mentalitetimizga asoslangan kognitiv ongimiz maxsulidir. Unda mavjud bo'lgan tushunchalar xamisha tilda aks etadi. Chunki ong va til bir biriga chambarchas bo'g'liq bo'lgan zanjirdir. Milliy madaniyat esa ularning o'rtasida bo'lgani holda har ikkisiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli ham boshqa boshqa madaniyat vakillarining ma'lum bir tushunchani tafakkur qilish va uni tilda maxsus ko'rinishda ifoda etishlari ham albatta bir biridan farqli. Bu farq madaniyatlar o'rtasidagi rang barang til birliklarida o'z aksini topadi

Til birliklarida aks etuvchi milliy xarakter hususidagi umumiy xulosa shundaki, yer yuzidagi har bir xalq o'ziga xos milliy xarakterni namoyon etadi. Ammo, bu milliy xarakterni mutloqlashtirib yuborish kerak degani emas. Boshqa xalqlarda va millatlarda uchramaydigan, faqat bir xalqqagina hos bo'lgan sof milliy xarakter umuman tabiatda uchramaydi. Milliy xarakterga oddiy shaxslar xarakterining yig'indisi deb qarash ham noto'g'ri. U ommaviy fenomen sifatida, individual xarakterlarning umumiy bo'lgan hislatlari ijtimoiy jihatidan qayta ishlanib, yangi, maxsus sifatga aylangan vaqtda tarkib topib namoyon bo'ladi. Jamiyat, millat, elat, yoki shaxsning mentalitetini o'rganish va aniqlash nihoyatda katta ehtiyotkorlikni hamda jiddiy yondashuvni talab qiladi. Milliy xarakterni faqat millatning soni, tarixining boy yoki qashshoqligi, millatning qaram yoki tobe bo'lishi yoki kapitalistik farmatsiyaga mansub emasligi bilangina aniqlashga urinish, jiddiy xatolarga olib kelishi mumkin. Uni aniqlash uchun juda ko'p omillar e'tiborga olinishi va boshqa millatlardan farqlay olish, ayni paytda qiyoslash, ushbu millatda

yashab o'tgan shaxslar, turli shart-sharoitlar, tarixiy davrlar, millat ruhiyati va boshqa qator jihatlarni o'rganish lozim. Yuqorida mentalitet so'zi lotinchadan tarjima qilinganda aql, fahm, zehn, idrok ma'nolarini anglatishini ta'kidlab o'tgan edik. Har bir millatning aqli, idroki, fahm-farosati uning yashab turgan shart-sharoitlari, tarixi, qanday xalqlar qurshovida istiqomat qilishi, ijtimoiy faolligi va boshqa omillar bilan bog'liq.

Milliy xarakter umumbashariy xususiyatlarga zid bo'lmaydi. SHuning uchun ham uni boshqa millat va elatlar xarakteridan ajratib qo'yishi yoki qarama-qarshi qo'yish mumkin emas. Har bir xalq - boshqa xalq bilan yaqin ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarga kirishganda undan o'zida yo'q narsalarni oladi va o'zidan ham ularda bo'lmagan narsalarni beradi. Ma'lumki, har qanday milliy xarakter o'z shakllanish jarayonida faqat o'z davrdagi ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida bo'lib qolmasdan, shuningdek, tarixiy tajribalar, ajdodlar tomonidan yaratilgan, to'plangan va avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy meroslar, milliy qadriyatlar ta'siri ostida ham kengayib boradi. Bunda ayniqsa, har bir xalqqa xos bo'lgan milliy urf-odat va an'analarning roli kattadir. Bu urf odat va an'analar ko'pincha milliy xarakterni ifodalagan holda xalq tilida, folklorda namoyon bo'ladi. Shu sababli ham milliy xarakter tushunchasini nafaqat psixologiyada, balki lingvistikada ham chuqur taxlil etilsa bu izlanishlar mukammal bo'ladi. Gap shundaki, til bizga yashirin bo'lgan ichki, yani mental dunyoni ochib beradi. Zero, Til barcha millat va elatlarning dunyo xaqidagi bilimlarini ifodalovchi, yaratuvchi va saqlab turuvchi quroldir. Til jamiyatga xizmat qilish bilan bir qatorda uning taraqqiyotini va gullab yashnashini belgilovchi omildir. Insoniyatning moddiy va manaviy dunyosi takomillashib borgani sari, til ham u bilan birga sayqallanib boradi. Shuning uchun ham insoniyatning barcha xayotiy tajribalari, muvaffaqiyatlari, xatoyu- kamchiliklari, yashash prinsplari, manaviy andozalari, ruhiy orzu-istaklari, borliq haqidagi bilim va ko'nikmalari tilda aks etadi.

Shunday ekan lingvokulturologiyaning asosiy o'rganish ob'ektlaridan bo'lgan tilda aks etuvchi urf-odat, an'ana, udum va turli marosimlarni atroflicha o'rganish, ularni vujudga kelishi, namoyon bo'lishi, saqlanishi va o'zgaruvchanligi kabi

qonuniyatlarini ochib berish ham nazariy, ham amaliy jihatdan ahamiyatga molikdir. Ko'rib turganimizdek, har qanday tushuncha o'z milliy madaniy hususiyatlariga egadir. Bu hususiyatlar millatning fe'l atvori, turmush tarzi, urf odat va ananalaridan kelib chiqqan holda o'sha tushunchani ifodalovchi til birligining qo'llanish doirasi (kontekst) ni belgilaydi. Shunday ekan, insonning tafakkur va lisoniy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan birliklarning strukturaviy va mazmuniy sathlarida milliy xarakter elementlarining ham aks topishi tabiiydir. So'zsiz bu milliy xarakter aynan o'sha madaniy muhitda, kundalik hayot faoliyatida uchraydigan voqelik hodisalari ta'sirida yuzaga keladi. Shu sababli turli madaniyat vakillari uchun kategoriyalashtirish hodisasi ham bir xilda kechmaydi. Darhaqiqat, til faqatgina muloqot quroligina emas, balki fikrlar, g'oyalar muallifi hamdir. Bizning maqsadimiz esa insonning tili yordamida u haqida ma'lumot olishdir. Shu maqsad asosida biz umumiy tushunchani, yani ma'lum madaniyatga hos insonlar xususiyatlarini birlashtiruvchi "milliy xarakter" tushunchasini oldik. Bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqot ishimiz hali kengaytirilishi lozim bo'lgan kichik ijodiy izlanish desak to'g'ri bo'ladi. Chunki cheksiz til ummonida hali taxlil etilmagan milliy koloritga va milliy xarakter hislatlariga ega til birliklari bisyordir. Shu sababli kelgusi izlanishlarimizda bu tadqiqot ishini yanada kengaytirish niyatimiz bor.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi – 09.04.2007
2. Karimov. I. A. Barkamol avlod orzusi.- T.: Sharq 1999. -245 b.
3. Karimov. I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin. Tafakkur 2-son, 1998 y.
4. Ashurova D.U. Text Linguistics.-T.: Tafakkur qanoti 2012.
5. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti: jamoaviylik va individuallik nisbati. Hurriyat gazetasi, 17 aprel 2002 y.
6. Kaykovus. Qobusnoma.- T: Sharq 1998.- 24-56b.
7. Qodiriy A. O'tgan kunlar.-T: Cho'lpon 2007.- 32-78b.
8. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. 2006
9. O'zbek xalq maqollari. – T.: “Sharq”, 2012. – 512 b
10. Арнольдov А.М. Введение в культурологию. -М., 1994.
11. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека / Н.Д. Арутюнова. М.: Языки русской культуры, 1998.-896с.
12. Арутюнов С. А., Багдасаров А.Р. и др. Язык -культура - этнос. - М., 1994.
12. Арнольдov А.М. Введение в культурологию. -М., 1994.
13. Бодуэн де Куртенэ. О задачах языкознания. М.:Изд-во АН СССР, 1963Т.- с. 202-223
14. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Лингвострановедческая теория слова. - М., 1980.
15. Вейсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа. - М., 1993.
16. ВежбицкаяА. Язык. Культура. Познание. - М., 1996.
17. Вейсгербер Й.Л. Язык и философия // Вопросы языкознания. -1993. -№2.
18. Виноградов В.В. О языке художественной прозы / В.В. Виноградов. -М.: Наука, 1980. 360 с.

19. Воробьев В.В. Лингвокультурология (Теория и методы) / В.В. Воробьев. М.: Изд-во Российского ун-та дружбы народов, 1997. — 332 с.
20. Воробьев В.В. Язык культура - личность / В.В. Воробьев // IV Международный симпозиум по лингвострановедению: Тезисы докладов и сообщений. - М., 1994. - С. 50.
21. Гачев Г.Д. Национальные образы мира. Космо-Психо-Логос. – М., 1995
22. Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества// Избр. труды по языкознанию. - М., 1984
23. Гумбольдт В. Язык и философия культуры / В. Гумбольдт. М.: Прогресс, 1985.
24. Гуревич А.Я. Человек и культура: Индивидуальность в истории культуры. - М., 1990
25. Гуревич П. С. Философия культуры. - М., 1994.
26. Дридзе Т.М. Язык и социальная психология / Т.М. Дридзе. М.: Наука, 1980
27. Фромм Э. Душа человека. - М., 1992.
28. Филлмор Ч. Фреймы и семантика понимания / Ч. Филлмор // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 23. -М.: Прогресс. 1988.
29. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. - М., 1987
30. Кацнельсон С. Д. Категории языка и явления. Из научного наследия. Москва., 2001
31. Колесов В.В. Ментальные характеристики русского слова в языке и философской интуиции // Язык и этнический менталитет / Отв.ред. З.К.Тарланов. – Петрозаводск, 1995.
32. Кон И. С. Национальный характер — миф или реальность? // Иностранная литература. 1968. № 9. С. 215—229
33. Котенка Р. Вопрос о человеке в философии М. Бубера // Человек. - 1997. -№ 4.
34. Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология / В.В. Красных. М., 2002.

35. Левяш И. Я. Культура и язык. - Минск, 1991
36. Леонтьев А. Н. Человек и культура. - М., 1961
37. Маслова В.А. Лингвокультурология / В.А. Маслова. — М.: Изд. Центр «Академия», 2001. 208 с.
38. Маслова В. А. Связь мифа и языка // Фразеология в контексте культуры. - М., 1999
39. Мечковская И. Б. Социальная лингвистика. - М., 1996
40. Пископпель А. Категория личности в перспективе европейской культурной традиции // Вопросы методологии. -1997. -№ 1, 2.
41. Попова З. Д. Стернин И. А. Язык и национальная картина мира. - Воронеж, 2007
42. Подюков И. А. Народная фразеология в зеркале народной культуры:. Учебное пособие. -Пермь, 1991
43. Пименова М. В. Ментальность: Лингвистический аспект. - Кемерово, 1996
44. Радченко О. А. Язык как мирозерцание: Лингвофилософская концепция неогумбольдтианства. - М., 1997. - Т. 1,2.
45. Смирнова Т.В. Языковая личность в контексте проблемы «язык и культура» / Т.В. Смирнова // Языковая личность: Лингвокультурология. Лингводидактика. Лексикография / Под.ред. В.В. Воробьева, Саяховой Л.Г. / Изд-во Баш.гос.ун-та. Уфа, 2001.
46. Сорокин Ю.А., Марковина И.Ю. Национально-специфическое в межкультурной коммуникации / Ю.А. Сорокин, И.Ю. Марковина // Текст как явление культуры. Антипов Т. А., Донских О.А., Марковина И.Ю., Сорокин Ю.А. Новосибирск: Наука, 1989.
47. Сэпир Э. Язык. М.: -Л.: Соцэкгиз, 1934.- 211с
48. Сорокин Ю.А. Введение в этнопсихолингвистику. - Ульяновск, 1998.
49. Соссюр Ф. Курс общей лингвистики // Труды по языкознанию. -М., 1977
50. Соссюр де Ф. Труды по языкознанию / Ф. де Соссюр. М.: Прогресс, 1977

51. Степанов Ю. С. В трехмерном пространстве языка: Семиотические проблемы лингвистики, философии, искусства. -М., 1985.
52. Стернин И.А. Коммуникативное поведение в структуре национальной культуры / И.А. Стернин // Этнокультурная специфика языкового сознания: сб. науч. тр., -М., 1996.
53. Телия В.Н. Основные постулаты лингвокультурологии / В.Н. Телия // Филология и культура: Материалы II Междунар. конф. Ч. 3. Тамбов, 1999.- С. 14-15
54. Телия В. Н. О методологических основаниях лингвокультурологии // XI Международная конференция «Логика, методология, философия науки». - М.; Обнинск, 1995.
55. Тер Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация / С.Г. Тер-Минасова.-М.,2000.-264с.
56. Чешко С. В. Человек и этничность // Этнографическое обозрение. - 1994. - № 6.
57. Arabic proverbs book (Al hekma al arabiyya) – Jamla, 2010
58. Sapir E. The status of linguistics as a science. In: Selected writings of Edward Sapir in language, culture and personality. Berkley: Univ. of California Press, 1968.-p. 106.
59. The Facts on File Dictionary of Proverbs.-London, Cambridge Press, 2007
60. The Concise Oxford Dictionary. Oxford University Press, 1964
61. The Marrian- Webster Dictionary. New York Press, 1974

Internet sources:

1. [www. Yandex.ru](http://www.Yandex.ru)
2. www. Yahoo. Com
3. www. Google. Co. uk

